

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS
INSTITUTI**

“Kasb-hunar ta’limi” kafedrasi

“MUTAXASSISLIKKA KIRISH”

FANIDAN

LEKTSIYA KURSI

SAMARQAND-2009

"MUTAXASSISLIKKA KIRISH" fanidan lektsiya kursi - S., 2009. - 66 bet.

Mazkur ma'ruza matnlarida «Mutaxassislikka kirish» fanining predmeti va vazitalari, Samarqand Iqtisodiyot va Servis institutining tashkil topish tarixi, institutdagi ixtisosliklar va mutaxassislik yo'nalishlari, institutda faoliyat yuritayotgan kafedralar, mutaxassislik fanlaridan ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgartik ko'rish, adabiyotlar ustida ishlash, talabalar bilimni baholash mezonlari, mustaqil ish, kurs ishi, bitiruv malakaviy ish va ilmiy maqolalar tayyorlash kabi masalalar keng yoritilgan.

Lektsiya kursi 5140900 – “Kasbiy ta’lim” yo'nalishi uchun moljallangan.

Mazkur ma'ruza- matnlari to'plami «Kasb-hunar ta'limi» kafedrasida majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. ...avgust 2009 y. ...-son majlis bayoni.

« Kasb-hunar ta'limi » kafedrasida mudiri: i.f.d. professor
Muhammedov. M.M.

Mazkur lektsiya kursi IUUKning 2009 yil «__» _____№ sonli bayonnoma bilan tasdiqlash uchun tavsiya etildi.

Tuzuvchilar: prof.M.M.Muhammedov.,Norboyeva D.J.

Taqrizchilar: dos.Qarshiyev.R.Q.
dos. Suyunov. O.J.

1.MAVZU: «MUTAXASSISLIKKA KIRISH» FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

O'quv maqsadi: talaba faqat oliy ta'lim haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish bilan chegaralanmasdan, uning o'rta ta'limdan farqini yaxshi tushunib oladi, oliy maktabni to'zilishi, o'quv jarayoning tashkiliy masalalari, tartib intizom, yo'nalishlari haqida yetarli darajada xabardor bo'ladi.

Tayanch so'z va iboralar: Mutaxassislik, o'qituvchi, bilim, malaka, ko'nikma, talaba, kasb, mantiqiy, strukturaviy, sxema.

Asosiy savollar:

- 1.«Mutaxassislikka kirish» fani haqida umumiy tushsicha.
- 2.Fanning maqsadi va vazifalari.
- 3.Oliy maktabning o'rta maktabga nisbatan xususiyatlar:

1.«Mutaxassislikka kirish» fanining predmeti va vazifalari.

«Mutaxassislikka kirish» fani oliy o'quv yurtlarining birinchi kurs talabalarini hozirgi xalqaro ahvol, davlatimizning ichki va tashqi siyosati, o'quv yurtlarining qisqacha taraqqiyoti tarixi, ularning to'zilishi va vazifalari, o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o'qitish jarayonining asosiy shakllari, o'quv rejasining mazmuni, ilmiy-tadqiqot ishlari, talabalarning huquq va burchlari, talabalarning bo'sh vaqtdan foydalanishlari, mustaqil ishlashni to'g'ri tashkil etish, kitob ustida ishlash, tabiat muhofazasi, bibliografiya texnikasi kabilar bilan tanishtiradi.

1991 yil O'zbekiston tarixida yangi sahifa ochildi,shu yilning 1 sentabrida mamlakatimiz mustaqilligi e'lon qilindi. 1992 yil 2 mart kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), O'zbekiston Respublikasining o'z tarkibiga kirishi to'g'risida qaror qabul qildi. Shunday qilib, O'zbekiston jahon tarixida nufuzli bo'lgan tashkilotning teng huquqli a'zosi bo'ldi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin “Ta'lim to'g'risida” qonun qabul qilindi. Qonun sifatida “Kadrlar tayorlashning milliy dasturi” tasdiqlandi. Bu hujjat ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida chuqur islohotlar asosida davlatimiz siyosatini ustivor yo'nalishini belgilab berdi. Ta'lim jarayoning mazmuni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Bu bosqichning dastlabki yo'nalishi “mutaxassislikka kirish” o'quv kursini o'rganishdan boshlanadi.

Bu kursni o'rganish jarayonida talaba faqat oliy ta'lim haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish bilan chegaralanmasdan, uning o'rta ta'limdan farqini yaxshi tushunib olishi kerak, oliy maktabni to'zilishi o'quv jarayoning tashkiliy

masalalari, tartib, intizom yo'nalishlari haqida yetarli darajada xabardor bo'lishi kerak.

Umumiy o'rta ta'lim maktabida va oilada to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirilgan yoshlar institutda o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishi uchun harakat qiladi, o'qib o'rganadi. To'g'ri kasb tanlash oilaviy xayotni ham moddiy, ham ma'naviy tomondan to'g'ri ta'minlashga yordam beradi. To'g'ri kasb tanlash insonning kelajagini belgilashda katta ahamiyatga ega. Har bir kasb, albatta, insonning qiziqishi va qobiliyati nuqtai nazaridan tanlanadi. Agar kasb to'g'ri tanlansa, shu kasbning yetuk mutaxassisi bo'lib yetishadi. Agar kasb tanlashga yoshlar ota-onalar xohish istagi bilan o'zi befarq qaragan holda yondashsa, bunda kelgusi hayotida katta fojialarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun kasb tanlashda ota-ona bilan maslahat qilishi bilan birga o'zining qobiliyati, kasbga loyiqligi, moddiy va ma'naviy jihat xisobga olinishi muhim. Aks holda noto'g'ri tanlangan kasb natijasida uni o'zlashtirishga yoki yillab o'zi sevmagan kasb bilan majburan shug'ullanishiga to'g'ri keladi. Ana shunday sharoitda eng avvalo oila, farzandlar aziyat chekadi, oila moddiy va ma'naviy qiyinchiliklarga duch keladi. Oiladagi bu ma'naviy va moddiy zarar jamiyatga ham ta'sir etadi. Chunki har bir mutaxassisni tayyorlab yetkazguncha davlat qanchadan-qancha mablag' sarflaydi, usha tashlab ketilgan kasbning mohir sohibi bo'ladigan inson esa bunga erisha olmay sarson-sargardon kezishi mumkin.

Yoshlarning kasb tanlashida ularga kasbning mosligi katta ahamiyatga ega. Kasbga moslik mehnat faoliyati jarayonida shakllanib, uning xulqi ham tarkib topa boradi.

Ba'zi hollarda to'g'ri kasb tanlanadi. U yoshlarning qiziqishi va qobiliyatiga to'g'ri keladi. Ammo mehnat faoliyati jarayonida uning tanlangan kasbi to'g'ri kelmasligini tushunib yetadi. Bunday hollarda o'z irodasi va qobiliyatini ishga solib, qiyinchiliklarni yengib o'tish zarur.

Demak, kasb tanlashda o'z qiziqishlari, qobiliyati, imkoniyatlarini hisobga olish, o'z karakterini bilish, o'z iroda kuchini anglab yetishni baholay olish talabalik yillarida muhimdir. Lekin kasb tanlashni usmirlik davridan boshlab, talabalik yillarida esa yuqori darajali mutaxassisni tayyorlashda samaradorlikka erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalar kun tartibi oiladagi usmir va uspirinlarning kun tartibidan farq qiladi. Talabalarning asosiy vaqti o'qish mashg'ulotlariga sarf bo'ladi. Lekin asosiy maqsad, ana shu o'quv mashg'ulotlarida talabaning faoliyatini oshirish, kun tartibini to'g'ri tashkil etishdir. Buning uchun talaba jismoniy tarbiya mashqlari, nonushta, bush vaqtini to'g'ri tashkil etish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, sog'lomlashtirish-sport ishlariga e'tiborini qaratmog'i lozim. Agar talaba bolaligidan oilada, o'z ota-onasi bag'rida kun tartibiga qat'iy rioya etsa, u talabalik yillarida ham kun tartibini to'g'ri to'za oladi. Bunda asosan o'qish mashg'ulotlaridan ta'limga e'tibor beriladi. Lekin qolgan bush vaqtini taqsimlashda san'at, sport, kitobxonlik bilan shug'ullanish, madaniy hordiq chiqarish (kinoteatrqa borish, radio, televideniye eshitish va ko'rish) bularning barchasi talaba kun tartibidan aniq o'rin olishi muhimdir.

Lekin talabalar orasida «Mustaqillik» natijasida mashg'ulotlarga qatnashmay, faqat bema'ni vidiofilmlar ta'sirida kunni kech qilayotgan, tungi barlarda kunni tongga ulayotganlar ham mavjud. Shuningdek tug'ilgan kun, bayramlar munosabati bilan hayotni faqat maishatdan iborat deb tushunayotgan yoshlar ham yuq emas. Shuning uchun ham birinchi kurs talabasini qabul qilish bilan unga oliy o'quv dargohida kun tartibini qanday tashkil etish yuzasidan maslahat uyushtirish va uni qat'iy nazorat qilish maqsadga muvofiq Toki «erkin» xayot tarzi talabalarning kelgusi oilaviy hayot tarziga salbiy ta'sir etmasin yoki uning ravon ketayotgan hayotini izdan chiqarib yubormasin.

Talaba hayot tarzining eng muhim qirralaridan biriga bo'sh vaqtni tashkil etish shakllari ham kiradi. Vaqtdan to'g'ri foydalanish avvalo har bir yoshning, qolaversa, jamiyatning moddiy va ma'naviy boyligini oshirishning muhim mezonidir. Vaqt ikkiga bo'linadi: mehnat faoliyati, ya'ni ish bilan bandlik va bo'sh vaqt.

Bo'sh vaqt talabaning o'quv mashg'ulotlaridan ozod paytidir. Bo'sh vaqt talabaning madaniy, maishiy, ma'naviy ehtiyojlarini, qiziqishlarini istak va xohishlariga ko'ra tashkil etadigan faoliyat jarayonidir.

Bo'sh vaqt talabaning qobiliyati va iste'dodiga kura tashkil etiladigan asosiy faoliyatdan tashqari - dam olish, madaniy hordiq chiqarish, mutolaa bilan shug'ullanish, aqliy va jismoniy qobiliyatni mustahkamlash hamda uni qaytadan tiklashda o'ta muhim sanaladi.

2.Fanning maqsadi va vazifalari. Davlat va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda bugungi kunda shakllanayotgan yosh avlodning bilimdonligi va tadbirkorligi muhim o'rin tutadi. Shu sababli, "Mutaxassislikka kirish" fanining maqsadi: iqtisodchi-pedagog mutaxassisligi bo'yicha ,hamda har tomonlama chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lgan, mustaqil tafakkur qila oladigan, qurilayotgan huquqiy, demokratik davlatimiz siyosatini xalq ommasi va yoshlar o'rtasida targ'ibot qilishga layoqatli, g'oyaviy e'tiqodli, ijodkor va intizomda namuna bo'la oladigan barkamol avlodni tarbiyalashda, ularning sifatli va samarali bilim olishlarini ta'minlash uchun o'quv-tarbiya, ilmiy va jamoat ishlarini yuqori talablar darajasiga ko'tarish maqsadida talabalar bilan ta'limning dastlabki bosqichlaridayoq muntazam va astoydil shug'ullanishdan iborat.

Fanning umumiy vazifasi - institut shart-sharoitiga tezroq moslashish buning uchun har bir talaba maqsad sari intilib, aqliy mehnat madaniyatini taqsimlantirish, o'z vaqtini tejab undan mazmunli foydalanishga harakat qilishi kerak,fanning asosiy vazifasi esa- talabalarni kasbiy faoliyatning ilmiy asoslari bilan tanishtirish; Oliy o'quv yurtida o'quv mehnati madaniyatini egallashlariga ko'maklashish; ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlarni o'tashlariga yordam berish; asosan mustaqil ravishda talabalarning o'zlarida iqtisodchi-pedagog shaxsiga kerak bo'lgan fazilatlarini shakllantirish va o'z-o'zlarini tarbiyalashga o'rgatishdir.

Ta'limning vazifasi fuqarolar va yoshlarning eng asosiy konstitusiyaviy huquqlaridan biri bo'lgan har bir kishining aqliy-amaliy imkoniyatlarini ruyobga

chiqarish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojini ta'minlash, o'zi xohlagan kasbini tanlash, uni mukammal egallab, shu sohada faoliyat ko'rsatish uchun moddiy-ma'naviy, tarbiyaviy-didaktik shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Bu umumiy vazifadan ta'limning har bir bo'g'ini, turi va boskichining o'ziga xos vazifalari kelib chiqadi.

3. Oliy maktabning o'rta maktabga nisbatan hususiyatlari.

Oliy maktabning o'rta maktabga nisbatan farqini aniqlash uchun dastlab oliy maktabning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish kerak. Bu yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

1. Oliy maktabda beriladigan bilimlar hajmini o'rta maktablarga nisbatan hajmi va mazmuni jihatidan ustunligi;

2. O'qitiladigan bilimlarni ixtisosligi;

3. Nazariy bilimlar bilan amaliy bilimlarni bir-biri bilan o'zaro bog'lanishi va to'ldirib borishi.

Agarda o'rta maktabda taqdim qilinadigan bilimlar bir darslik hajmida bo'lsa, oliy maktabda 5-10 darslik hajmida qo'llanma bo'ladi. Bularning har biri chuqur bilim olishga xizmat qiladi. Iqtisodiy masalalar bilan bo'g'langan qaror va tushuntirishga e'tibor beriladi.

Oliy maktabda yosh jihatidan yuqori bo'lgan (17 yoshdan yuqorisi) yigit va qizlar ta'lim oladilar. Ular tartib intizom jihatidan shakllangan bo'ladilar, otanonalar majlisi tez-tez chaqirib turilmaydi.

O'rta maktabda o'quvchining o'zlashtirish darajasi muntazam tekshirib boriladi. Oliy maktabda esa reyting tizimi joriy qilingan. O'rta maktabda fanlar dars sifatida o'rgatiladi. Oliy maktabda ma'ruza va amaliy mashg'lotlar asosida tushuntirishga ahamiyat beradi.

Oliy maktablarda talabalarning mustaqil ishlarini amalgam oshirishga alohida ahamiyat beriladi.

Shunday qilib, oliy ta'lim o'zining bilim darajasi bilan o'rta ta'limdan keskin farq qiladi. Bunday yuqori darajada bilim berish uchun mustaqil ishlashga ahamiyat beriladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. «Mutaxassislikka kirish» fani nima uchun iqtisodiy fanlar tarkibidan o'rin olgan.
2. Fanni o'rganish usullari haqida tushuncha bering?
3. «Mutaxassislikka kirish» fanini o'qitish nima uchun kerak?
4. «Mutaxassislikka kirish» fani nimani o'rgatadi uning qanday vazifalari bor?
5. «Mutaxassislikka kirish» fanining mazmunida nimalarni o'rgatish maqsadi yotadi va uning mutaxassislar tayyorlashdagi roli qanday?

2-MAVZU: OLIY O'QUV YURTIDA O'QUV-TARBIYA JARAYONINING TASHKIL ETILISHI.

O'quv maqsadi: Bu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng talaba Oliy ta'limning maqsadi, vazifalari haqida tushuncha beradi, o'quv tarbiyaviy jarayonini to'g'ri tashkil qiladi.

Tayanch so'z va iboralar: davlat siyosati, gumanistik, demokratik, universitet, grantlari, tulov kontrakt vositalari, abituriyent, test, yuridik shaxs, nizom, institut, o'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'lim standartlari, dastur, davlat raqobatbardosh, texnologiya, bakalavriat, magistratura, akademiya, nodavlat, attestatsiya, akreditatsiya, ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, auditoriya, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar.

Asosiy savollar:

1. Oliy ta'limning maqsadi, vazifalari va tashkil qilinishi.
2. O'quv tarbiyaviy jarayonini tashkil qilish.
3. Oliy ta'lim muassasalari talabalari.

Oliy ta'lim haqidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998 yil 30 oktyabrdagi 305 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan

Umumiy o'rta, maxsus, kasb-xunar ta'limi negizidagi oliy ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi bo'lib «Ta'lim to'g'risida» hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq, amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ta'lim va tarbiyaning gumanistik, demokratik mazmunda ekanligi;
- universitet ta'limining ustuvorligi;
- o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limning uzluksizligi, ketma-ketligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy mazmunda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga umumiy va tabaqalashgan yondashuv;
- bilimdonlik va iste'dodni ragbatlantirish;
- oliy ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uygunlashtirish;
- oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish birlashuvini ta'minlash; Talabalarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish davlat grantlari va tulov-kontrakt vositasi bilan abituriyentlarning bilim darajasini test va boshqa sinov turlariga binoan aniqlash yuli orqali amalga oshiriladi;

Oliy ta'lim muassasalari-yuridik shaxs, ular oliy ta'lim dasturlarini amalga oshiradilar, amaldagi qonuniy tartibda tashkil etadilar, o'zlarining ustavi va mazkur Nizom asosida faoliyat ko'rsatadilar.

Oliy ta'lim muassasasi ustavi mazkur Nizom, O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 5 yanvar 5-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Ta'lim muassasasi ustavini ishlab chiqish tartibi»ga muvofiq, tayyorlanadi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tasdiqlanadi, mahalliy ma'muriy idoralarda ruyxatga olinadi.

OLIJ TA'LIMNING MAQSADI, VAZIFALARI VA TASHKIL QILINISHI

Oliy ta'limning maqsadi "O'zbekistonning yuksak rivojlangan demokratik mamlakatlar darajasida ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish bilan ta'minlay oladigan, yuksak ma'naviy, madaniy va axloqiy fazilatlarga ega yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar yetishtirishdir. Oliy ta'limning asosiy vazifalari quyidagilar:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ilg'or, zamonaviy ta'lim va kasb-hunar asosida yuqori samarali o'qitishni tashkil qilish va malakali kadrlarni yetishtirishni ta'minlash;

- mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishi istiqbollari, jamiyat talablariga binoan fan, texnika, ilgor texnologiya, iqtisodiyot va madaniyatning zamonaviy yutuqlari asosida kadrlar o'qitishni tashkil qilish va uning uslublarini muntazam takomillashtirish;

yoshlarni milliy tiklanish mafkurasi va umuminsoniy qadriyatlarini bilish asosida, mustaqillik goyalari, Vatan, oila, tabiatga mexr va insonparvarlik ruxida tarbiyalash;

- ta'lim, fan va ishlab chiqarish birlashuvining amaliy tizimlarini ishlab chiqarish va amaliyo'tga kiritish;

- ilmiy-pedagogik kadrlar va talabalarning ilmiy tadqiqotlari va ijodiy faoliyatlari orqali fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish;

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish asosida ta'lim xizmatlari bozorida raqobatli muxitni shakllantirish;

- oliy ta'lim muassasalarini takomillashtirish va ular mustaqilligini kengaytirish; ta'sislar, vasiylar, jamoat ko'zatuv kengashlari shaklida yangi jamoat boshqaruvini kiritish;

- oliy ta'lim sohasida yuksak rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirish;

Oliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim va kasbiy-ta'lim dasturini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari;

- oliy ta'lim rivojlanishiga zarur bulgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

- ta'limni boshqarish davlat idoralari, hamda ular tasarrufidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

Oliy ta'lim muassasalari mutaxassislar tayyorlashni oliy ta'lim

yo'nalishlari va ixtisosliklari klassifikatoriga muvofiq amalga oshiriladi.

Faqat davlat ta'lim muassasalarida tayyorlanadigan ta'lim yo'nalishlari va ixtisosliklari ruyxatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi joriy qiladi.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim yo'nalishlari va ixtisosliklarining ro'yxati ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida marketing rivojlanishi bilan aniqlab boriladi va mexnat bozori talabi xisobga olingan xolda, davriy qayta ko'rib chiqiladi.

Oliy ta'lim ikki pog'onaga-bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat ixtisosliklari yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, o'rta maxsus, o'rta kasbiy ta'lim negizida, muddati kamida turt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavr dasturi tugallanganidan sung bitiruvchilarga davlat attestasiyasi yakunlariga binoan kasb bo'yicha «bakalavr» darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasbiy ta'lim bilan shug'ullanish yoki oliy ta'limning keyingi bosqichida o'qishni davom ettirish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura aniq ixtisoslik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriatdan keyin uning negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Magistratura dasturini tugallagan bitiruvchilarga davlat attestasiyasi yakuniga ko'ra ta'lim yo'nalishining muayyan ixtisosligi bo'yicha «magistr» darajasi beriladi va tegishli ilova bilan davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Magistraturaga qabul qilish tanlov asosida, ta'limni boshqaruvchi vakolatli davlat idorasi tasdiqlagan «Magistratura haqida Nizom»da belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat nusxasidagi bakalavr yoki magistr diplomlari ular egalariga o'zlarining ta'lim yo'nalishi (ixtisos) bo'yicha kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki keyingi ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirish huquqini ham beradi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalarining quyidagi turlari joriy etiladi: universitet, akademiya, institut.

Universitet:

- bilim sohalari va bilim berish yo'nalishlarining keng qamrovi bo'yicha oliy va undan keyingi ta'lim turlari dasturlarini amalga oshiradi;
- oliy ta'lim muassasalari turli iqtisodiy sohalarda mutaxassislari, kasb-xunar kollejlari va akademik liseylar, pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish amaliyotini bajaradi;
- fanlar keng qamrovi bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar olib boradi;
- bilimning tegishli sohalari bo'yicha ilmiy va uslubiy markaz bo'ladi;

AKADEMIYA:

- muayyan bilim sohalari va kadrlar tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha oliy va undan keyingi ta'limlarning kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshiradi;

- ma'lum sohalar uchun oliy malakali kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanadi;

- fan, madaniyat, san'at sohalari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar bajaradi;

- o'z faoliyati sohasida yetakchi ilmiy va uslubiy markaz bo'ladi;

INSTITUT:

- odatda, bilimlarning bir sohasi doirasida oliy va undan keyingi ta'limlarning kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshiradi;

- xalq xujaligining ma'lum sohalari uchun mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiradi;

- amaliy va shuningdek, fundamental ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

Oliy ta'lim muassasalarida yo'nalishlar bo'yicha fakultetlar, bo'limlar va talabalar akademik guruhlari to'ziladi.

Oliy ta'lim sohasidagi ta'lim xizmati bozori, davlat tomonidan boshqariladigan ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muxitini shakllantirish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari rivojlanishini ta'minlash, asosiy kasbiy-ta'lim dasturlarida ko'zda tutilmagan pulli maslaxatlar va qo'shimcha xizmatlarni rivojlantirishga asoslanadi.

Oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, qayta to'zilishi va tugatilishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi joriy etgan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat buyurtmasi bo'yicha oliy ma'lumotli va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash davlatga qarashli va nodavlat ta'lim muassasalariga har yili ajratiladigan davlat ta'lim grantlari asosida amalga oshiriladi. Davlat ta'lim grantlari xisobiga bo'lgan o'qitish harajatlari respublika byudjeti xisobiga qoplanadi.

Korxonalar va tashkilotlar buyurtmalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash ta'lim muassasalari tomonidan kontrakt asosida amalga oshiriladi. Korxonalar va tashkilotlarning o'z grantlarini ta'lim va ilmiy muassasalarga ham, bevosita fuqarolarga ham ajratishi mumkin. Korxonalar va tashkilotlarning grantlari bevosita fuqarolarga, ularning ta'lim muassasalariga kirish uchun konkursdan o'tish natijalariga ko'ra ajratiladi.

Ta'lim va ilmiy muassasalarning ta'lim jarayoni bilan bog'liq, harajatlariga, shu jumladan, o'qituvchilar va ilmiy rahbarlar mehnatiga haq to'lash, moddiy texnik negizni mablag' bilan ta'minlash, rivojlantirish va uni mustahkamlash harajatlari, korxonalar, tashkilot va fuqarolardan olingan mablag'lar xisobiga ham qoplanadi.

Davlat hamda korxonalar va tashkilotlar grantlarini ta'lim va ilmiy

muassasalar yoki fuqarolarga ajratish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan «Davlatga qarashli va nodavlat ta'lim muassasalari uchun ta'lim grantlari haqida Nizom» asosida joriy qilinadi.

Davlat ta'lim grantlari asosida ta'lim olgan mutaxassislardan foydalanish bozor munosabatlari bilan davlat manfaatlarini samarali qo'shgan holda amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasasi tomonidan davlat ta'lim standartlarining bajarilishi hamda kadrlar tayyorlash sifatining nazorati ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat idorasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazidagi Kadrlarni tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagogik kadrlar va ta'lim muassasalarini attestatlash boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarini attestasiyadan o'tkazish ularning idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan nizom asosida Davlat test markazining Kadrlarni tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagogic kadrlar va ta'lim muassasalarini attestatlash boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarini akkreditatlash tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi joriy qiladi.

Davlatga qarashli oliy talim muassasasini ta'sis etish haqidagi dalolatnoma unga ta'lim faoliyatini olib borish huquqini beradi.

Nodavlat oliy ta'lim muassasasi ta'lim faoliyatini olib borish huquqiga davlat akkreditasiyasidan o'tgan paytdan boshlab ega bo'ladi va amaldagi tartibda attestasiyadan o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi davlat akkreditasiyasidan attestasiya natijalari bo'yicha mahrum qilinishi mumkin.

O'QUV-TARBIYAVIY JARAYONNI TASHKIL QILISH

Oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim jarayoni davlat ta'lim standartlarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarining quyidagi turlari joriy qilingan: ma'ruza, maslaxat, seminar, amaliyot, mashg'ulot, laboratoriya ishi, nazorat ishi, mustaqil ish, amaliyot, kurs loyixasi (ishi), malaka bitiruv ishi.

Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turi uchun 45 (yoki tanaffussiz juft ma'ro'zalar uchun 40) minutli akademik soat joriy qilingan. Mashg'ulotlar o'rtasidagi tanaffus 10 minutdan kam emas. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv yili, odatda, ikki semestrغا bo'linadi, ulardan har biri talabalar o'zlashtirishi natijalarining yakunlanishi bilan tugallanadi.

Talabalarning fanlarni o'zlashtirishi «a'lo», «yaxshi», «qoniqarli», «qoniqarsiz» baholarga muqobil o'zlashtirish ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi.

O'zlashtiruvchi talabalarni kursdan kursga o'tkazish fakultet dekanining taqdimiga binoan oliy ta'lim muassasasi buyrug'i orqali amalga oshiriladi. Shartli ravishda o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Oliy ta'limning kasbiy ta'lim dasturlarini tula o'zlashtirish ta'limni

boshqarish bo'yicha vakolatli davlat idorasi tasdiqlagan Nizomga binoan bitiruvchilarni majburiy yakuniy attestatlash bilan tugallanadi.

Talabalar amaliyotlari barcha turlari davlat va nodavlat korxonalar va tashkilotlarda ular bilan oliy ta'lim muassasalari o'rtasida to'zilgan shartnomalarga binoan, o'quv rejalari va «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti haqida namunaviy Nizom»ga muvofiq o'tkaziladi.

Oliy ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan o'zaro boglanishi amaldagi qonunlarga muvofiq o'quv-ilmiy, o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmualari, birlashmalari, assosiasiyalari tuzish yo'li bilan hamda yirik olim va mutaxassislarni o'quv jarayoni va ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish, ilmiy-tadqiqot institutlari, korxonalar va tashkilotlarda oliy ta'lim muassasasining markazlari, laboratoriyalari, kafedralari va bulimlarini tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalar, akademik litsey, kasb-xunar kollejlari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari o'quvchilari safidan olimpiadalar, konkurslar, test sinovlari tashkil qilib, iste'dodli yoshlarni tanlash ishlarini amalga oshiradi. Ularni davlat ta'lim standartlariga zid bo'lmagan shaxsiy o'quv rejalari bo'yicha o'qitishni tashkil etadi, yoshlarga o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon qilish va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratadi.

Fuqarolar tulov-kontrakt asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim olishga haqli.

Oliy ta'lim muassasalarida yoshlarning axloqiy-ma'naviy tarbiyasi va dunyoqarashini shakllantirish, ta'limning gumanistik mazmunda bo'lishi boy milliy ma'daniy-tarixiy an'analar urf-odatlariga asoslanganligi, umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi, O'zbekistonning mustaqillik tamoyillariga sadoqatligi ruhida tarbiyalash bilan ta'minlanadi.

OLIJ TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI

Oliy ta'lim muassasasi talabasi uchun rasmiy tartibda ro'yxatga olingan shaxsdir. Talabaga rasmiy nusxadagi talaba guvoxnomasi va reyting daftarchasi topshiriladi.

Oliy ta'lim muassasasi talabalari quyidagi xuquqqa ega:

-fan-texnika va madaniyat rivojining zamonaviy darajasiga munosib bilimlar olish;

-o'quv dasturiga muvofiq ko'zda tutilgan qo'shimcha kurslar va o'qish turini tanlash;

-ta'lim muassasasi faoliyatining muhim masalalarini muhokama va hal qilishda qatnashish, shu jumladan, jamoat tashkilotlari orqali ham;

-ta'lim muassasasi Nizomida joriy qilingan tartibda kutubxona, axborot fondi, o'quv, ilmiy tibbiy va boshqa bulinmalar xizmatlaridan tekin foydalanish;

-ilmiy-tadqiqot ishlari, anjumanlar, simpoziumlarda ishtirok etish;

-o'z ilmiy ishlarini chop qildirish, shu jumladan, ta'lim muassasalari nashrlariga taqdim etish;

- Oliy ta'lim muassasasi ma'muriyati qarorlari ustidan shikoyat qilish;

Talabalarni o'quv vaqti xisobiga o'quv jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ishlarga jalb etish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlarida ko'zda tutilgan hollarda boshqa hollarda man etiladi.

Talabalar bilim egallashi, ko'rsatilgan muddatda o'quv rejalari va ta'lim standartlari ko'zda tutilgan topshiriqlarning hamma turlarini bajarishi, Nizomga, ta'lim muassasasi ichki tartibi va jamoa xayoti qoidalariga rioya qilishlari shart.

Davlat grantlari asosida kunduzgi shaklda o'qiydigan talabalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi joriy qilgan tartib va miqdorda stipendiyalar bilan ta'minlanadi. Talabalar tegishli qoidalarga muvofiq nomdor, hamda ularni o'qishga yo'llagan yuridik va jismoniy shaxslar belgilagan stipendiyalarni olishga haqli.

To'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan talabalarning moddiy ta'minoti o'qitishning to'lov-kontrakt tizimi haqidagi tegishli Nizom asosida amalga oshiriladi.

Tibbiy sabablar va ayrim istesno xollarda talabaga akademik ta'til beriladi.

O'zrli sabablar bo'yicha o'quv dasturi talablarini bajara olmagan talabalarga yangi o'quv yili boshlangunga qadar akademik qarzlarni o'zish imkoniyati beriladi.

Ko'rsatilgan muddatlar ichida davlat ta'lim standartlariga binoan belgilangan kasbiy ta'lim dasturlari xodimini o'zlashtirmaganlar ta'lim muassasasi talabalar safidan chiqariladi.

Talabalarni o'qishga qaytadan tiklash va talabalar safidan chiqarish ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat idorasi joriy qilgan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Talabalar O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasi joriy qilgan tartibda boshqa ta'lim muassasasiga o'tish xuquqiga ega. Bir ta'lim muassasasidan boshqasiga o'tishda oliy ta'limning shu pog'onasida birinchi marta o'qiyotgani kabi barcha xuquqlari saqlanib qoladi. Talabalarni akkreditatlanmagan ta'lim muassasasidan akkreditatlanganiga o'tqazishga yo'l qo'yilmaydi.

Turar joyga muxtoj talabalar yotoqxonada sanitariya me'yorlari va qoidalariga muvofiq joy bilan ta'minlanadi.

Turar joyga muxtoj talabalar mavjudligida yotoqxonaning turar joylaridan boshqa maqsadlarda (ijaraga berish va boshqa bitimlar) foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Kunduzi o'qiydigan talabalarga o'qishdan bo'sh vaqtlarida mexnat shartnomasi asosida ta'lim muassasasini o'zida yoki undan tashqari joylarda ishlashga ruxsat beriladi.

Talabalarning boshqa huquqlari qonunlar va (yoki) oliy ta'lim muassasasi ustavi tomonidan joriy qilinishi mumkin.

Talaba ushbu Nizom yoki ta'lim muassasasi ichki tartib qoidalari ko'zda tutgan majburiyatlarni buzganda unga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkin: tanbeh, jiddiy tanbeh ta'lim muassasasi talabalari safidan chiqarish.

Intizomiy jazo choralari nojo'ya ish qilingani aniqlangach, bir oydan kechikmasdan va u qilinganiga olti oy o'tmasdan qo'llaniladi. Bunda talaba kasal va ta'tilda bo'lgan vaqti xisobga olinmaydi. Talabani kasal, joriy ta'til, xomiladorlik, bola tarbiyasi ta'tillari paytida talabalar safidan chiqarishga yo'l qo'yilmaydi.

OLIJ TA'LIM MUASSASASI XODIMLARI

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik (professorlar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar), injener-texnik, ma'muriy-xo'jalik, ishlab chiqarish, o'quv-yordamchi va boshqa xodimlarning lavozimlari ko'zda tutiladi.

Professor-o'qituvchilar tarkibiga kafedra mudiri, professor, dosent, o'qituvchi, assistent lavozimlari kiradi.

Pedagogik faoliyat yuritish xuquqiga tegishli oliy ta'limga, kasbiy tayyorgarlikka va yuqori ma'naviy-axloqiy sifatlari bor bo'lgan shaxslar egadir. Sud hukmiga asosan ma'n etilgan shaxslarga ta'lim muassasalarida bunday faoliyat bilan shug'ullanishga yo'l qo'yilmaydi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi barcha ilmiy-pedagogik xodimlar lavozimlarini egallash mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim muassasasiga pedagogik xodimlarni ishga qabul qilish tartibini tegishli Nizom belgilaydi. Ilmiy-pedagogik lavozimni egallash uchun mehnat shartnomasi (kontrakt) to'zilisidan oldin konkurs o'tkaziladi.

Fakultet dekanlarini oliy ta'lim muassasasi rahbari, ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat idorasi bilan kelishilgan holda tayinlaydi.

Ta'lim muassasasi ilmiy-pedagogik xodimlari:

- rasmiy tartibda ta'lim muassasasi (fakultet) ilmiy kengashiga saylanish va unga saylash;

oliy ta'lim muassasasi faoliyatiga tegishli masalalarni muhokama qilish va hal etishda qatnashish;

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Oliy ta'lim haqidagi nizom nechanchi yili tasdiqlangan?
2. Oliy ta'limning maqsadi, va vazifalari haqida tushuntirib bering?
3. Universitet, akademiya va institutlar orasida qanday farq bor?
4. O'quv tarbiyaviy jarayonini tashkil qilish deganda nima tushunasiz?

3-MAVZU: OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNING REYTING TIZIMI TO'G'RISIDA

O'quv maqsadi: Talabalarga baholash reyting tizimi to'g'risida ma'lumot berish, baholash turlari va shakllarini farqlaydi, talaba o'z bilimini baholashning reyting tartibini o'rganadi.

Tayanch so'z va iboralar: reyting tizimi, joriy baholash, oraliq baholash, yakuniy baholash, o'zlashtirish, yozma ish.

Asosiy savollar:

1. BAHOLASH TURLARI VA SHAKLLARI
2. TALABA BILIMINI BAHOLASH TARTIBI
3. REYTING NATIJALARINI QAYD QILISH TARTIBI

1. BAHOLASH TURLARI VA SHAKLLARI

Talabalar bilimini reyting tizimi orqali baholashdan maqsad, talabalarda o'qitilayotgan fanlarni chuqur egallash, topshiriqlarga ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, o'z bilimini muntazam ravishda oshirishga intilish hamda adabiyotlardan keng foydalanish kabi xususiyatlarni rivojlantirish va ushbu tariqa raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga erishish.

Reyting tizimi quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

- talabalar o'zlashtirishini muntazam ravishda nazorat etib borish, ularni semestr (o'quv yili) davomida o'z ustilarida uzluksiz faol ishlashlarini ta'minlash;

- talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini keng rivojlantirish;

- professor-o'qituvchilarda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rish, baholash savollarini tuzishda mas'uliyatni oshirish.

Fan bo'yicha maksimal reyting bali, o'quv rejasida aynan shu fanga ajratilgan soatlar miqdori bilan belgilanadi.

Talaba bilimini baxolashda, avval uni o'zlashtirish ko'rsatkichi aniqlanadi, so'ng har soatlari miqdoriga muvofiq uning fan bo'yicha reytingi hisoblab topshiriladi.

BAHOLASH TURLARI VA SHAKLLARI

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishi baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi.

- joriy baxolash (JB)
- oraliq baxolash (OB)
- yakuniy baxolash (YaB) - •

JB da fanning har bir mavzusi bo'yicha talabaning bilim darajasini (o'zlashtirish) aniqlab borish nazarda tutiladi va u odatda, amaliy

mashg'ulotlar (seminar yoki laboratoriya ishlari) darslarida amalga oshirishi mumkin.

OB da fanning bir necha mavzularini qamrab olgan bilim yoki qism bo'yicha nazariy mashg'ulotlar o'tib bo'lgandan so'ng talabaning nazariy bilimlari baholanadi va unga talabaning muayyan savol yoki muammoni yechish mahorati va qobiliyati aniqlanadi.

YaB da fanning semestr (o'quv yili) davomida o'tilgan xajmi doirasida talabaning bilimi baholanadi. YaB turiga ajratilgan ballar miqdori, o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning 30% miqdorida belgilanadi.

Fan bo'yicha JB va OB turlarida talaba to'plashi mumkin bo'lgan reyting balning miqdori, o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning 70% miqdorida belgilanadi. Oliy ta'lim muassasalariga o'z xususiyatlaridan kelib chiqib, JB va OB turlarining foizlarini belgilash huquqi beriladi.

YaB turi tushunchalari asoslangan «Yozma ish» usulida yoki boshqa usullarda (og'zaki, test, himoya va hokazo) ham o'tkazilishi mumkin.

Tayanch tushunchalarga asoslangan «Yozma ish» usulini o'tkazish tartibi «Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichi «Yozma ish» usulini tadbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom» bilan belgilanadi.

O'quv rejaga muvofiq o'qitilishi bir necha semestr (o'quv yili)ga rejalashtirilgan fan bo'yicha talabaning umumiy reyting bali, har bir semestr (o'quv yili) davomida bu fan bo'yicha talaba tomonidan to'plangan reyting ballar yig'indisi», bilan aniqlanadi.

Baholash turlari har bir fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda, dars jarayonida so'rov o'tkazish, test savollariga javob berish, kontrol ishlarini bajarish, suhbat va shu kabi boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Dekanat va kafedralar belgilangan tartibda fan bo'yicha talabaning OB, JB hamda YaB («yozma ish» yoki boshqa usul) turlarida ko'rsatilgan o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlil qilib borishlari va ularning natijalarini belgilangan shakldagi qaydnomalarda qayd etishlari lozim. Baholash natijalari o'quv bo'limida operativ ravishda ishlovdan o'tkaziladi.

Reyting natijalari oliy ta'lim muassasasining Ilmiy Kengashida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Oliy ta'lim muassasasi fan bo'yicha baholash turlarining har biri bo'yicha reyting ballarini hisoblash kriteriyalarini ishlab chiqadi (kontrol ishlari, test sinovlari, savollar to'plami va xokazo) va Uslubiy Kengashda tasdiqlaydi.

TALABA BILIMINI BAHOLASH TARTIBI

Semestr davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal balning kamida 55% ni to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan deb hisoblanadi. Semestr davomida o'qitilayotgan fan bo'yicha maksimal balning 55% dan kam ball to'plagan talaba (akademik qarzdor) deb hisoblanadi.

Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plangan ballar quyidagi

o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86-100 foiz «a'lo»
- 71-85 foiz «yaxshi»
- 56-70 foiz «o'rta»
- 55 foizdan kam «qoniqarsiz»

Talabani barcha turdagi amaliyotlardan olgan bilim va ko'nikmalari, kurs ishi yoki kurs loyihasi, bitiruv malakaviy ish (loyihasi), davlat attestatsiyalari natijalari o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi va reyting daftarchasida alohida qayd etiladi.

Reyting ballarini hisoblashda talabani o'quv mashg'ulotlardagi faolligi, mustaqil ishlarni bajarishga ijodiy yondasha olish, o'quv-mehnat intizomiga amal qilish sifatlari ham hisobga olinishi (reyting ball doirasida 10% gacha) maqsadga muvofiq.

JB,OB va YaB turlarida fanni o'zlashtira olmagan (55% dan kam ball to'plagan) yoki sababli baholash turlarida ishtirok eta olmagan talabalarga 1 hafta muddat ichida qayta baholashdan o'tishga ruxsat berilishi mumkin.

Fan bo'yicha belgilangan maksimal reyting ballarining 55% dan kam ball to'plagan talaba, belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi (birinchi kurs talabalariga nisbatan o'quv yili yakunlari bo'yicha amalga oshirish maqsadga muvofiq)

Talabani kursdan kursga o'tkazishda o'quv rejada muayyan semestr (o'quv yili)ga belgilangan fanlardan talaba to'plagan reyting ballar miqdori hisobga olinadi va rektorning buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

REYTING NATIJALARINI QAYD QILISH TARTIBI

Har bir fan bo'yicha o'tkazilgan baholash turlarida talaba to'plagan reyting ballar miqdori, belgilangan tartibda tasdiqlangan shakldagi qaydnomada qayd qilinadi.

Semestr davomida ,fan bo'yicha o'tkazilgan baholash turlarida talaba to'plagan umumiy ball, talabani «Reyting daftarchasi»ga yoziladi.

Talaba, fan bo'yicha o'tkazilgan baholash turlarida, fanga ajratilgan maksimal ballning 55% dan kam ball to'plagan holda, uning shu fan bo'yicha to'plagan reyting ballari «Reyting daftarchasi»da qayd etilmaydi.

Har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan baholash turlarining (JB, OB va YaB) natijalari dekanat va kafedralar tomonidan reyting nazorat ekranida muntazam ravishda yoritib boriladi.

Reyting nazorati ekranini tashkil etish va uni belgilangan muddatlarda rasmiylashtirish vazifasi fakultet dekani zimmasiga yuklatiladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Baholashning reyting tizimi o'zi nima?
2. Joriy baholash qaysi qanday o'tkaziladi ?
3. Oraliq baholash bilan yakuniy baholashning o'rtasida qanday farq bor?

4-MAVZU: SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

O'quv maqsadi: Talabalar SamISIning tarixini biladi, institutning boshqarish tizimi bilan tanishadi, mutaxassisligi bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Tayanch so'z va iboralar Iqtisodiy rejalashtirish instituti, Savdosi instituti, Xalq xo'jaligi instituti, institutni boshqarish, fakultet, kafedra, ilmiy-uslubiy kengash, rektor, prorektor, dekan, kafedra bo'limi.

Asosiy savollar:

- 1.Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti tarixidan.
- 2.Samarqand Iqtisodiyot va Servis institutini boshqarish.
- 3.Iqtisodchi-pedagog kasbi haqida.

1.Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti tarixidan.

Biz "Mutaxassislikka kirish" fanini o'rganishni dastlab O'zbekistonda iqtisodiy fanlarni rivojlanishi haqidagi ma'lumotlardan boshlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Oktabr to'ntarishiga qadar O'rta Osiyoda, bir so'z bilan aytganda Turkistonda iqtisodiy fanlar rivojlanmagan edi. Rossiyadan kelgan iqtisodchi olimlar 10ga yaqin kitob va maqolalar chop etgan edilar. Lekin iqtisodiy mutaxassislik bo'yicha faqatgina oily maktab emas, hatto o'rta ma'lumot beradigan maktablar ham yo'q edi.

Zamon taqozosi bilan Rossiya paxta zavodlari va boshqa korxonalar uchun buxgalterlar, soliq xodimlari qisqa kurs yo'li bilan tayyorlanar edi. Qishloq xo'jaligiga yirik yer egalari o'zlarining hisob-kitoblari uchun mirzalar yollar edilar.

2009 yili O'zbekiston milliy universiteti (oldingi "Sredneaziatskiy Gosudarstvenniy Universitet) tashkil qilinganiga 90 yil to'ladi. Universitet tashkil qilingandan keyin boshqa mutaxassislar qatori iqtisodchilar tayyorlashga ahamiyat berila boshlandi. Lekin yerli millatlardan juda kam miqdorda kadrlar tayyorlab chiqarilardi.

1931 yildan boshlab kadrlar tayyorlash ixtisoslashtirila boshlandi. SamISI birinchi marta 1931 yil 15 fevral kuni Komissarlar Kengashining 173-sonli qarori asosida tashkil qilindi. Dastlab institut "O'rta Osiyo Iqtisodiy rejalashtirish instituti" shaklida tashkil qilindi. Institut bu davrda faqat O'zbekiston uchungina emas, balki Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston respublikalari uchun iqtisodiyot sohasida kadrlar tayyorlashni o'z zimmasiga olgan edi.

1936 yilda O'rta Osiyo Iqtisodiy rejalashtirish instituti bilan Kooperativ va davlat savdosi institutlari qo'shilib bitta oliygohni tashkil qildi, va Xalq xo'jaligi instituti deb nomlandi.

Ulug' Vatan urushi davrida institut talabalarining ko'plari Vatan himoyasiga otlandilar. Institutga o'sha vaqtdagi markaziy shaharlardan ayniqsa Leningrad, Xarkov va boshqa shaharlardan talabalar ko'chib keldilar. Urushda yarador

bo'lgan sobiq jangchilar institutda o'qishni davom ettirdilar. O'sha davrda institutning binosi ko'z shifoxonasiga bo'shatib berilgan edi, Boshqa shahardan ko'chib kelganlar o'rta maktablar binosida ma'ruza eshitib, o'qishni davom ettirdilar. 1942 yilda institutni erli millatlardan faqat uch kishi tamomladi. Shu davrning yutuqlaridan biri shundan iborat ediki, ko'chirilib keltirilgan olimlar tashabbusi bilan institutda aspirantura tashkil qilindi. Urush tamom bo'lgandan keyin erli millat vakillaridan institutga qabul qilishga alohida ahamiyat berildi. 1945 yildan boshlab o'zbek guruhlarini tashkil qilinib, ko'pchilik fanlardan darslar o'zbek tilida olib borildi.

1944 yildan boshlab O'zbekiston Fanlar Akademiya sinogining iqtisod institutida nomzodlik dissertasiyalarining himoyalari tashkil qilina boshlandi. 10 iyun 1949 yilda O'zbek xalq xo'jaligi instituti V.V.Kuybishev nomidagi Samarqand Savdo Instituti deb nomlandi. 1-dekabr 1960 yilda esa V.V.Kuybishev nomidagi Samarqand Savdo Instituti -V.V.Kuybishev nomidagi Samarqand Kooperativ institutiga aylantirildi. Ko'p yillar davomida Samarqand Kooperativ instituti tayyorlagan mutaxassisliklarga ehtiyoj oshib borardi.Oliygohimiz nafaqat respublikamizga balki O'rta Osiyoning barcha xududlariga malakali savdo hodimlarini va oziq-ovqat texnologlarini tayyorlovchi asosiy dargohga aylandi 2004 yilning aprel oyida Samarqand Kooperativ institutining nomi o'zgaradi :Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti deb nomlanadi

2.Samarqand Iqtisodiyot va Servis institutini boshqarish.

O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, bozor munosabatlarini shakllantirish, demokratik jamiyal asoslarini barpo qilish asosida Samarqand Iqtisod va Servis institutining mavqei yanada oshdi. U servis, turizm, moliya, buhgalteriya hisobi, iqtisod, kasbiy ta'lim va boshqa mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlovchi asosiy dargohga aylandi.

Hozir institutda 3 ta fakultet: Servis va turizm fakulteti; Iqtisod fakulteti; Bank va moliya hizmatlari fakultetlari. Magistratura bo'limi hamda 15 ta kafedra faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Hozirda institutda ta'lim olayotgan 1.400 nafardan ortiq talabaga 300 ga yaqin professor-o'qituvchilar saboq berishadi. Shulardan 1ta Akademik,10 ta fan doktori, 80 dan ortiq fan nomzodlari va 232 ta o'qituvchilar yosh avlodga ta'lim tarbiya berish bilan mashg'ul.

Bank va moliya hizmatlari fakulteti quyidagi ixtisosliklar bo'yicha kadrlar tayyorlaydi: a) moliya yizmatlari, b) audit va buhgalteriya hisobi, v) bank ishi, g) g'aznachilik , d)sug'urta yo'nalisleri.

Servis va turizm fakulteti quyidagi ixtisosliklar bo'yicha kadrlar tayyorlaydi:a)Kasbiy ta'lim,b)turizm operatori,v)servis,g)servis (texnika va texnologiya),d)servis(aholiga oziq ovqatni tashkil qilish).

Iqtisod fakulteti quyidagi ixtisosliklar bo'yicha kadrlar tayyorlaydi:a)iqtisodchi,b)turizm menejmenti,v)turizm marketingi.

Bular barobarida institutda kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini ta'minlovchi SamISI qoshidagi 1va 2 son akademik liseylari, magistratura, malaka oshirish institlari bor.

Shuningdek, istitutda ta'lim haqidagi, qonun talablariga xizmat qiluvchi

kompyuter, nashr ishlari, ilmiy o'quv axborot texnologiyasi, kutubxona, bos Institut tarkibida talabalar uchun jihozlangan talabalar uyi mavjud. Bu dargohlarda sport bilan shug'ullanish, dars tayyorlash uchun tegishli sharoitlar yaratilgan.

Yana bir narsa haqida aytib o'tish kerak, institut professor-o'qituvchilari va talabalar katta tezlik bilan ishlaydigan internet tarmog'i bilan boglanganlar.

Bozor iqtisodiga o'tishning muhim 2 talablaridan biri: tayyorlanayotgan mutaxassislarning ishchanligi, sifatini yanada yaxshilash; ularning ijodiy fikrlovchi va tashabbuskor mutaxassislar qilib tarbiyalashga erishishdan iborat. Bu vazifani amalga oshirishda institutda o'quv jarayonining serunum tashkil qilish muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, o'quv jarayoni tashkiliy va uslubiy shakllargagina ega bo'lmasdan u ko'p qirralidir. Bu qirralarga o'quv rejalari, o'quv dasturlari, dars jadvallari, sinovlar, maslahatlar, turli xil tajribalar kiradi.

O'quv jarayoni qirralarini samarali ishlashi ilmiy jihatdan rahbarlikni talab qiladi. Bunday rahbarlik dastlab institut rektori va uning xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Institutga rektor rahbarlik qiladi. Rektor Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining taqdimnomasiga ko'ra Vazirlar Mankamasi tayinlanadi, rektorga uning o'rinbosarlari itoat qilib, institutdagi barcha ishlar ular o'rtasida taqsimlanadi. O'rinbosarlar o'quv, ilmiy tadqiqot, tarbiya, xo'jalik ishlari bo'yicha o'zlariga belgilangan vazifalarni amalga oshirishini ta'minlaydilar. Talabalar ayrim masalalarni hal qilish uchun rektor o'rinbosariga itoat qiladilar. Har bir fakultetga alohida dekan tayinlanadi.

Institutda 15 ta kafedra bor:

- 1 Ijtimoiy –gumanitar fanlar kafedrası
- 2.Tillar kafedrası
- 3.Axborot texnologiyalar kafedrası
- 4.Oliy matematika kafedrası
5. Bank ishi kafedrası
- 6.Jismoniy tarbiya kafedrası
- 7.Kasb-hunar ta'limi kafedrası
8. Menejment kafedrası
- 9.Statistika kafedrası
- 10.Iqtisod kafedrası
- 11.Xalqaro turizm kafedrası
- 12.Marketing kafedrası
- 13.Moliya xizmatlari kafedrası
- 14.Bugalteriya va audit kafedrası
- 15.Servis (aholiga xizmat qilish) kafedrası.

Kafedra, oliy o'quv yurtlari (fakultet) tuzilishidagi, bir yoki bir necha turdosh fanlar bo'yicha o'quv, uslubiy va ilmiy-uslubiy ishlarni amalga oshiruvchi, talabalar orasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib boruvchi, shuningdek, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlovchi hamda ularning malakasini oshiruvchi asosiy tarmoq xisoblanadi.

Kafedra zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

-barcha o'quv shakllari (ishlab chiqarishdan ajralgan va ishlab chiqarishdan ajralmagan hollarda) bo'yicha oliy ta'limning davlat ta'lim standartlariga muvofiq tuzilgan o'quv rejalarida belgilangan ma'ruzalar, laboratoriya ishlari, amaliy va boshqa turdagi mashg'ulotlarni yuksak nazariy, ilmiy-uslubiy va kasbiy darajada o'tkazish; talabalarning malakaviy amaliyotiga, kurs loyixalariga (ishlariga), bitiruv malakaviy ishlariga, magistrlik dissertasiyalariga, shuningdek, mustaqil ishlarga raxbarlik qilish, talabalar bilimining reyting nazoratini joriy etish; talabalarning auditoriyalardan tashqari ishlarini tashkil etish bo'yicha tadbirlar o'tkazish;

- rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi yuksak ma'naviyat va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

- kafedra fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqqa taqdim etish, shuningdek, turdosh kafedralar tomonidan tayyorlangan o'quv dasturlariga taqriz va xulosalar tayyorlash;

- darslik o'quv, uslubiy va ko'rgazmali qo'llanmalarni tayyorlash, shuningdek, oliy o'quv yurti rektoratining topshirig'iga binoan qayta nashr etiladigan darslik o'quv qo'llanma va o'quv-uslubiy adabiyotlar, jumladan, xorijiy olimlar bilan ham mualliflikda yaratilganlarga xulosalar tuzish, nodavlat ta'lim muassasalarining buyurtmalari bo'yicha zaruriy o'quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda ishtirok etish;

- iqtidorli talabalar bilan ishlash; talabalarning, ilmiy-tadqiqot ishlariga raxbarlik qilish.

Oliy o'quv yurtini bitirganlar va mazkur kafedrada aspiranturani o'taganlar bilan muntazam aloqani tashkil etish.

O'quv ishlari asosan kafedralar tomonidan tashkil qilinadi. Har bir kafedra har bir fan bo'yicha tasdiqlangan o'quv dasturiga ega. Fan dasturlari mavzularga ajratilib, har bir mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati, tayanch so'z va iboralar, nazorat qilish uchun savollar keltiriladi

Bu kafedralar o'z ixtisosliklari bo'yicha tegishli dekanlarga itoat qiladilar. Institut hayotadagi eng yirik o'quv va ma'muriy bo'lim dekanat bo'lib xisoblanadi.

Fakultet ishiga raxbarlikni fakultet dekani amalga oshiradi.

Fakultet dekani, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishgan xolda, oliy o'quv yurtlari rektori tomonidan professor yoki tajribali dosentlar safidan tayinlanadi.

Dekan fakultetda o'quv-tarbiya ishlarini, kafedralar faoliyatini uyushtiradi va raxbarlik qiladi. Stipendiyalar, ilmiy safarlar, talabalarning imtixonga kiritish, kursdan-kursga ko'chirish, sessiyalarni o'tkazish, Davlat imtixonlarini uyushtirish va boshqa ishlarni amalga oshiradi.

Dekanlar o'z faoliyatlarida har bir guruhdagi talabalar bilan guruhboshi orqali bog'lanadilar. Agar birorta talaba darsga kelmay qolsa, guruh sardori dekanni xabardor qiladi.

4 yil davomida talabalarga o'qitiladigan fanlarning asosi 3 yo'nalishda tasavvur qilish mumkin.

- 1) Nazariy-ijtimoiy fanlar.
- 2) Mutaxassislikka doir fanlar,
- 3) Bundan tashqari amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalar ham o'rgatiladi.

Umumiy nazariy ijtimoiy fanlarga O'zbekiston tarixi, iqtisodiy geografiya, iqtisodiy nazariya va boshqalar kiradi.

Institutda ilmiy kutubxona mavjud. Kutubxonada 10700 ta kitob bo'lib, ular talabalarning foydalanishlari uchun xizmat qiladi.

3. «Kasbiy ta'lim» ixtisosligi

Institutda 4 yil davomida o'qitiladigan ixtisoslikka doir fanlar bo'yicha quyidagilarni gapirish mumkin. Bu fanlar bir semestrda o'qitilmasdan 4 yil davomida semestrlar bo'yicha taqsimlanadi va fan bo'yicha alohida daftar tutishi kerak. Bunda ma'ruza uchun alohida, seminar va amaliy mashg'ulot uchun alohida daftar tutiladi. Har bir daftarga talabaniy familiyasi, dars olib boruvchi o'qituvchining ismi va sharifi ko'rsatiladi.

Agarda o'qituvchi tomonidan uyga vazifa berilsa, bu vazifa alohida qog'ozda hal qilinib, keyin amaliy mashg'ulot daftariga ko'chiriladi.

Ma'ruza uchun tutiladigan daftarda har bir ma'ruza qachon o'tkazilgani, o'qituvchining familiyasi ko'rsatilishi kerak.

Iqtisodchi-pedagog yangi turdagi mutaxassislik bo'lganligi uchun uni kasbiy va pedagogik jihatdan tayyorlash eng murakkab muammodir.

Ayniqsa hozirgi vaqtda, jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodchi –pedagog iqtisodiy inqirozning kelib chiqishini va ta'sirini kamaytirish chora-tadbirlarini o'zi to'g'ri tushunib etishi kerak va talabalarga ob'ektiv tarzda, to'g'ri ko'rsatib berishi kerak. Prezident Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarlarida belgilab berilgan O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish eng avvalo jamiyatimiz a'zolari tomonidan ularning mazmun-mohiyatini teran va chuqur anglab yetilishini taqozo etadi.¹ Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tavsiyasiga ko'ra Prezidentimiz I.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarlarini talabalar tomonidan chuqur va har tomonlama o'rganish, unda ko'rsatib o'tilgan dolzarb masalalarning tub mohiyatini anglash, 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlarini bilish maqsadida maxsus kursni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ma'suliyat albatta iqtisodchi-pedagog zimmasida bo'ladi, chunki talabalarga iqtisodiy inqirozni ob'ektiv tushuntirib btrish kerak bo'ladi.

¹ Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» T: 2009y.

Bo'lajak iqtisodchi-pedagog eng avvalo psixologiya, pedagogika va iqtisodiyot fanlaridan ilmiy bilim va ko'nikmalarga ega bulmog'i talab etiladi.²

Iqtisodiy pedagogika bu yaxlitlikni o'zida mujassamlashtiruvchi fan sifatida yuzaga keldi. U fan sifatida iqtisodiyot qonuniyatlarini pedagogik metodlar orqali o'rganadi. Mustaqillik davrida iqtisodiyot pedagogikasining maqsad va vazifalari, iqtisodchi-pedagog kadrlar tayyorlashda Islom Karimov asarlarining o'rni, bulajak iqtisodchi-pedagoglarning psixologik xususiyatlari, iqtisodiy pedagogikaning rivojlanish tarixi, uning kasbiy hamda ahloqiy xususiyatlari, nazariy asoslari, talabalarda milliy istiqloq g'oyasini shakllantirish va milliy ongni tarbiyalash hamda iqtisodiy ta'limni boshqarish masalalariga qaratilgan.

Iqtisodiyot- inson faoliyatining mahsulotlarni ishlab chiqarish, uning natijalarini o'zlashtirish, mavjud moddiy va mehnat imkoniyatlaridan foydalanish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning muhim tomonidir.

Iqtisodiyot juda keng va murakkab tushuncha. Unga birinchi navbatda, mamlakat yoki jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar kiradi, ularning tabiati esa mavjud mulkchilik munosabatlari bilan belgilanadi. Iqtisodiyot tushunchasiga mamlakatdagi ishlab chiqarish xolati, joylanishi va dinamikasi ham kiradi. U mamlakatning o'ziga xos xususiyatlariga ham masalan, O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi holati va darajasi uning xomashyo ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi, asta-sekin bevosita pirovard (tayyor) mahsulotlar ishlab chiqarishga va axolisi hamda chet el ehtiyojlarini qondirishga o'tila borayotgani bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiyot hamma vaqt qandaydir o'ziga xos tuzilishga ega. U avvalo ishlab chiqarish tarmoqlarini hamda noishlab chiqarish sohalarini ham qamrab oladi. Ushbu sohalar o'rtasida muayyan bog'liqliklar, nisbatlar mavjud bo'lib, iqtisodiyot holati ularning ichki tuzilishi darajasiga ham bog'liq, bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, iqtisodiyot rivoji endilikda noishlab chiqarish tarmoqlarining, ayniqsa, maishiy xizmat ko'rsatishning taraqqiyoti bilan belgilanmoqda.

Iqtisodiyot tor ma'noda xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlaridagi ishlab chiqarish, undagi natijalar, ularni taqsimlanishi va iste'mol qilinishi holatini ham ifodalaydi. Shuningdek, xalq xo'jaligining quyi bo'g'inlari korxonalar iqtisodiyoti «iqtisodiyot» tushunchasida muhim o'rin tutadi. Zero, iqtisodiyotning umumiy holati va rivoji xuddi ana shu dastlabki bug'inlardan iqtisodiy ahvolga bog'liqdir. Shuning uchun ham iqtisodiyotda o'sish, ijobiy natijalarga erishish uchun korxonalarni rivojlantirish, ularda boshqarishning iqtisodiy vositalarini joriy etishga e'tibor qaratiladi.

Iqtisodiy qonunlar chuqur munosabatlardir. Yuqoridagilardan ma'lum buldiki, iqtisodiyot - katta bir olam, ulkan makondir, unda bir biriga bog'liq munosabatlar, bog'liqlik va aloqadorlik mavjud. Ana shu jarayonlarning o'zi ko'p tomonlama va ko'p qirralidir. Bu murakkab iqtisodiy jarayonlar yoki voqyealar ichida shundaylari borki, ular muhim o'zaro bog'lanish va sabab- oqibat aloqalariga ega, ular doimo takrorlanib turadi. Ana shunday iqtisodiy voqyea-

² N.Xo'jayev, J. Hasanboyev. "Iqtisodiy pedagogika" Toshkent. 2002 y.

hodisalar iqtisodiy qonunlarda ifodalanadi.

Zamonaviy iqtisodchi-pedagog qiyofasida qo'yidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak:

- Iqtisodchi-pedagog chuqur iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishi kerak, jamiyat ijtimoiy xayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy isloxotlar moxiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada talabalarga tug'ri, asosli ma'lumotlarni berib borishi lozim.

- Zamonaviy iqtisodchi-pedagog ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

- Iqtisodchi-pedagog o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi lozim.

- Iqtisodchi-pedagog, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan xolda faoliyat tashkil etishi kerak.

- Iqtisodchi-pedagog ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olishi imkoniyatiga ega bo'lmog'i darkor.

- Iqtisodchi-pedagog ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi shart.

- Iqtisodiy madaniyatga ega bo'lishi, bu zamonaviy bilimlar negizida shakllangan ijtimoi-iqtisodiy e'tiqodni, bunyodkor ijodiy faoliyatini, qamrab oladi.

- Iqtisodchi-pedagog, iqtisodiy o'sishning obyektiv qonuniyatlari haqidagi yetarli, keng tasavvurlari, ularga mos ijtimoiy-iqtisodiy e'tiqodi, ko'zlagan iqtisodiy maqsadi yo'nalishidagi faol amaliy xatti-harakatlari, ularni amalga oshirish borasida egallagan malakalari va mahoratning yaxlit holda ijodiy o'zgartiruvchan va bunyodkor iqtisodiy faoliyat usuli sifatida namoyon bo'lishi kerak.

- Iqtisodchi-pedagog yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kommunikativlik layoqatiga ega bo'lishi, pedagogik texnika nutq, yuz, qo'l, oyok. va gavda harakatlari (mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

- Iqtisodchi-pedagog nutq madaniyatiga ega bo'lishi uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

- a) nutqning ravonligi;
- b) nutqning aniqligi va mantiqiyliqi;
- v) nutqning ifodaviyligi;

- Iqtisodchi-pedagog kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda, bejirim kiyinish; ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining turli xil diqqatni tez jalb etuvchi bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, xatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishish) ega bo'lishi lozim.

- Iqtisodchi-pedagog shaxsiy xayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

O'qituvchi shaxsining mazkur talablarni o'zida aks ettira olgan qiyofasi uning

talabalar, xamkasblar xamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi. Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish sharoitida inson omilini vujudga keltirish davr talabiga aylandi.

Barkamol inson xaqida g'amxo'rlik jumhuriyatimizning asosiy maqsadidir. Qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajriba tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan xamda yuksak umumiy va kasb -hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faoliyatiga, ijtimoiy - siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'la bilish moxiyatiga ega bo'lgan, istiqbolli vazifalarni ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yunaltirilgandir.

Oliygohta ta'lim-tarbiya olayotgan talabalardan esa ta'limning davlat ta'lim standartlari asoslaridan xabardor bo'lgan holda amaliyot, ilg'or pedagogik tajribalar natijalari hamda ularning o'zaro aloqadorligida uning samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ta'lim me'yorlari, qoidalari, daraja va sifat ko'rsatkichlarini o'zlarida mujassamlashtirib, malakali mutaxassis bo'lib yetishishni talab qiladi.

Iqtisodchi o'qituvchi o'tmish ajdodlarimiz yaratgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'rifiy va ma'naviy merosimizni yosh avlodga yetkazib beruvchi vositadir. Shunday ekan o'qituvchi shaxsi oldida katta mas'uliyat uyg'unlashadi. Bular asosan o'qituvchining kasbiy mahoratlariga quyiladigan talablar negizida namoyon bo'ladi. Demak, ular qo'yidagilar:

- iqtisodchi o'qituvchi avvalo o'z kasbini sevishi hamda o'z predmetining (iqtisodiy fanlar majmuini) chuqur bilimdoni bo'lishi;
- pedagogika va psixologiya fanlarini chuqur o'zlashtirib, o'kuv-tarbiya ishlari metodikasini puxta egallashi;
- hayot, fan, madaniyat, ma'rifat masalalari, xozirgi zamon texnika-texnologiyalari bilan chuqur qurollangan va ularni o'zlashtirgan bo'lishi;
- Respublikamiz hayotiga oid materiallar, ommaviy axborot vositalaridan, gazeta va jurnallardagi iqtisodiyotimizga oid eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lishi va ularni talabalarga yetkaza bilishi;
- shu bilan birga Respublika Prezidenti I.Karimov asarlari, ulardagi iqtisodiy g'oyalar, ijtimoiy xarakterga ega voqyea-hodisalarni tahlil qila olish kabi vazifalar kiradi.

O'qituvchilik kasbiga qadam qo'yish niyatida bo'lgan kishi o'z-o'ziga: shu kasbni sevamanmi, dilimda bu ishga xavas o'ti bormi? Bir umr ana shu nihoyat murakkab, lekin sharaflil kasbning jozibali sehri bilan yashay olamanmi? - degan savollarni berib, o'z qalbi bilan gaplashib olmog'i lozim. Shunday ekan davr, bola iste'dodini yoshligida bog'chada va maktabda vaqtida aniqlash, jamiyatning talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda uni o'stirish shakl va usullarini yaratishni talab etmoqda. Har qanday kishi ham o'qituvchi bo'la olmasligini ilmiy tadqiqotlar ko'rsatmoqda.

O'qituvchilik kasbini egallash uchun kishida qobiliyat, muayyan-psixologik malaka va ma'lum tayyorgarlik bo'lishi lozim. Insonni el hurmatiga sazovor

etuvchi yaxshi fazilatlardan biri tanlagan kasbida sadoqat bilan ishlay bilishdir. Kasbda qo'nimli bo'lish insonni bezovchi ziynat bo'libgina qolmay, ishni unumli ham qiladi. Bir yerda, bir kasbda uzoq, ishlashda hikmat ko'p. Dono xalqimiz "Daraxt bir yerda ko'karadi" deb bejiz aytmagan. Umuman, har bir inson bir kasbda, iloji boricha bir joyda qo'nim bilan ishlashi uning o'zi uchun ham, jamiyatimiz uchun ham foydali. Demak, ishda, kasbda qo'nimsizlik kishining o'ziga ham, jamoatga ham foydasiz. Bas shunday ekan, o'qituvchilik kasbida mas'uliyatli va itoatkorlik, o'z kasbiga muhabbat va sadoqatli bo'lish zarur. Shu nuqtai nazardan ko'pgina o'qituvchilar o'z kasbiga fidoyiligi va madaniyati, go'zal ma'naviy fazilatlari bilan el hurmatiga sazovor bo'ladilar.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. SamISI qachon tashkil topgan?
2. Nechanchi yil SamISI –Samarqand Kooperativ Institutiga aylantirildi?
3. Mustaqillik yillarida SamISI faoliyati.
4. Institutda fanlar necha yo'nalishda o'qitiladi?

5-mavzu:Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti talabalarining ma'naviy- ma'rifiy qiyofasi

O'quv maqsadi: Talabalarga oliygohimizning qonun qoidalari haqida tushuncha beriladi, talaba o'z huquq va burchlarini biladi, bo'sh vaqtlaridan samarali foydalanishlari uchun tavsiyalar beriladi.

Tayanch so'z va iboralar: Talabalarning huquq va burchlari, auditoriya, kafedra, "otrabotka", aktiv dam olish, passiv dam olish, tanbeh, xayfsan, ogohlantirish, , tashakkur, mukofot .

Asosiy savollar:

1. Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti talabalarining huquq va burchlari.
2. Talabalarning turmush sharoitlari, dam olishlari, madaniy hordiqdari.

1.Talabalarning huquq va burchlari

Mamlakatimiz Konstitusiyasi barcha fuqarolarning ilm olish huquqiga ega ekanliklari zarhal xarflar bilan ifoda qilingan. Konstitusiyaning bu ko'rsatmasi dastlab «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Uzluksiz ta'lim insonning aql zakovatli qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutishi

lozim. Buning uchun har yili davlat hisobidan ko'plab mablag'lar ajratilmoqda. Ta'lim uchun davlat sarf-xarajati byudjet bo'yicha sarf-xarajatning katta qismini tashkil qiladi va yil sayin o'shib bormoqda. Agar bu xarajatlar 1997 yilda 24,3 foizni tashkil qilgan bolsa, 2007 yilda 40 foizni tashkil qildi. Ta'lim uchun sarflangan xarajatlarni ko'p qismi oliy ta'limni rivojlantirishga sarflanmoqda. Bu raqamlar fuqarolarni ilm olishlari uchun yetarli mablag'lar ajratilayotganligini ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan institut talabasi nomini olgan shaxslar dastlab o'zlarining huquq va burchlarini yaxshi bilishlari kerak. Talabalarning huquqlariga quyidagilar kiradi:

-o'quv zallari, kutubxonalar va boshqa o'quv yordamchi muassasalaridan, shuningdek institut sport inshootlaridan foydalanish. Bu huquqdan foydalanish talabani institut mulkiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni talab qiladi. Agarda kutubxonaga tegishli kitob yo'qolsa talaba bu kitobni 3-4 barobari miqdorida tiklab berishi kerak.

-kafedralarda talabalar ilmiy jamiyati tomonidan tashkil qilgan ilmiy to'garaklarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish.

-mavjud qonunchilikka asosan stipendiya olish.

Talabalarning bu huquqlari ularga katta vazifalarni yuklaydi:

- a) binolarda palto va bosh kiyimlarda yurishga ruxsat etilmaydi;
- b) qattiq gapirish, shovqin solish, mashg'ulotlar davrida koridorlarda yurish;
- v) maxsus belgilangan joylarda va boshqa joylarda chekish man qilinadi.

Bu vazifalar haqida gapirar ekanmiz mashg'ulotlar vaqtida gaplashmaslik, shovqin solmaslikka, koridorda yurib, mashg'ulot davom etayotgan xona eshigini ochib, biror narsani iltimos qilishga yo'l qo'yilmasligini alohida uqtirish kerak. Buning uchun xar bir koridorga bittadan navbatchi qo'yib tartib saqlashga alohida ahamiyat berish kerak. Shu munosabat bilan o'qituvchi va talabaning munosabatlariga alohida e'tibor berish kerak.

Birinchiidan, o'qituvchi darsga kirganda darsga kelmagan talabalarni jurnalda belgilab qo'yishi, kelmagan talabalar o'tilgan darslarni belgilangan vaqtda «otrabotka» qilishlari kerak.

Uch marotabagacha darsga qatnashmaganlarga dekanat tomonidan chaqiruv yo'li bilan xal qilinadi. Uch martadan ortiq dars qoldirilgan talabalarning masalasini maxsus komissiya hal qiladi.

Agarda talaba semestr davomida darslarni 30 soatdan ko'prog'iga qatnashmagan bo'lsa, u holda rektorning buyrug'i bilan oliy o'quv yurtidan chetlashtiriladi.

Talabalar tomonidan qoldirilgan dars mazmuni yozma ravishda kafedra ixtiyorida saqlanadi. Darslarni qoldirgan talaba doimo guruh murabbiysi e'tiborida bo'lishi lozim. Uzrli sabablarga binoan darsga kelmay qolgan talaba tibbiyot hujjati bilan birga dekanga ariza topshiradi. Shuningdek, talabalar rektorat ruhsatisiz o'quv binolaridan biror predmet yoki boshqa narsalarni boshqa binoga olib chiqib ketishlari mumkin emas.

Talabalar intizomli bo'lishlari institutda ham, ko'cha-ko'yda ham, jamoat

joylarida ham hamisha yaxshi, ozoda kiyingan bo'lishlari kerak. O'quv intizomini, ichki tartib qoidalari hamda yotoqxona qoidalarini buzganliklari uchun talabalarga quyidagi choralarning biron-tasi qo'llanishi mumkin:

1. tanbeh beriladi;
2. xayfsan e'lon qilinadi;
3. ogohlantirgan holda xayfsan e'lon qilinadi;
4. institutdan haydaladi.

Institutning qoidalari orasida jazo choralari bilan birga rag'batlantirish tadbirlari ham ko'zda tutilgan. O'qishda yuksak ko'rsatkichlarga erishgani, jamoat ishlarida faol qatnashgani uchun talabalar quyidagi yo'nalishlarda taqdirlanadilar:

- 1, tashakkur e'lon qilinadi.
2. yorliqlar bilan mukofotlanadi.
3. qimmatbaho sovg'alar beriladi.
4. mukofotlar topshiriladi.

Yurish, turish, kiyinish, ovqatlanish, salomlashish va boshqa umum tartib-qoidalar tomonidan qabul qilingan odob qoidalari o'z-o'zidan paydo bo'lgan emas.

Asrlar davomida shakllangan odob, ahloqiy qoidalarga amal qilib borish nuqsonlarni o'z vaqtida tuzatish har bir yosh kadrning burchidir.

3. Talabalarning turmush sharoitlari, dam olishlari

Dam olish aktiv va passiv bo'lishi mumkin. Aktiv dam olishga madaniyat boyliklari va go'zalliklaridan bahramand bo'lish, o'ziga yoqqan ijodiy ishlar bilan shug'ullanish, ajoyib kishilar bilan muloqotda bo'lish, sayr qilish va boshqa kerakli mashg'ulotlar kiradi.

O'quv yurtlarini ma'muriyati talabalarning bo'sh vaqtlaridan samarali foydalanishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berishga harakat qilishlari kerak.

Talabalarning bo'sh vaqtlaridan samarali foydalanishlari uchun quyidagi tadbirlar tavsiya qilinadi.

Birinchi, shuni aytish kerakki, har bir guruhga murabbiy tayin qilinib, uning rahbarligida har haftada bir marotaba mashg'ulot o'tkaziladi.

Bu mashg'ulotlarda asosan quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

o'tgan haftada intizomga rioya qilmagan, darsga qatnashmagan talabalarga chora ko'riladi. Ikkinchi, gazeta va jurnallarda chop etilgan muhim iqtisodiy va moliyaviy hujjatlar hamda qarorlarni, Prezident I A. Karimov nutqlarini muhokamasi, uchinchi, dolzarb mavzulardagi maqolalarni muhokamasi murabbiy tomonidan olib boriladi. Bu doimiy tadbirlardan tashqari talabalarni madaniy tarbiyalashga bag'ishlangan quyidagi qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirish kerak:

1. Talabalar har kuni jismoniy tarbiya mashqlariga chiqib, 10-15 minut o'z jamoalari bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.
2. Guruh murabbiysi tashabbusi va ishtirokida korxonalariga ekskursiya tashkil qilish.

Bizning fikrimizcha, talaba o'quv davrida kam deganda 2 ta kollej va litseylarga ekskursiyada qatnashishi kerak, chunki har bir bo'lajak iqtisodchi-pedagog dars o'tish sirlarini va iqtisodiyotini yaxshi o'rganishi lozim. Bundan tashqari psixologiya va boshqaruv san'ati (menejment) fanlarini ham mukammal o'rganishi lozim.

Ma'lumki, ko'pchilik talabalar viloyatlardan kelib o'qiganliklari uchun bunday ekskursiyalar nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Muzeylar haqida gapirganimizda Amir Temur muzeyi, San'at muzeyi, tabiat muzeylari, yozuvchilardan Alisher Navoiy muzeyi, G'ofur G'ulom muzeyi, Oybek muzeylarini borib ko'rish, talabalarni madaniy tomondan barkamol rivojlanishiga yaqindan yordam berish mumkin. Bunda guruh murabbiylari tashabbus ko'rsatishlari kerak.

Talabalarni madaniy jihatdan tarbiyalash, ufarni vaqtli matbuot bilan muntazam tanishishlariga alohida ahamiyatga egadir. Har bir talaba xaftada bir marotaba kutubxonaning o'quv zaliga kirib markaziy gazetalarni ko'zdan kechirishi va kerakli maqsadlar mazmunini qisqacha yozib olishi kerak. «Xalq so'zi», «Mulkdor», «Turkiston» gazetalari materiallaridan foydalanib, alohida daftarga yozib borishi tavsiya qilinadi.

Talabalarni madaniy jihatdan tarbiyalashda badiiy adabiyotning roli katta. Keyingi yillarda «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «Ma'rifat» gazetalarida ko'plab maqolalar e'lon qilinmoqda, bu gazetalarda yangi adabiy kitoblarga qiziqarli sharhlar berilmoqda. Bu sharhlarga asoslanib yangi kitoblarni muntazam o'qib borishga odatlanish kerak.

Keyingi 2 yil ichida institutimizda yozuvchilar, olimlar bilan uchrashish, adabiy kechalar o'tkazishga alohida ahamiyat berilmoqda. Kelgisida bunday tadbirlarni yanada kuchaytirish kerak

Shu bilan birga yotoqxonalarda televizor orqali berilayotgan muhim eshittirishlarni jamoa bo'lib tomosha qilish va muhokama qilish bilan birga, ulardan mustaqil ishlarida sifat jihatidan foydalanishga ham alohida ahamiyat berish kerak.

Madaniyat ijtimoiy hodisa bo'lib jamiyat rivojlangani sari talabalarning madaniy darajasi ham takomillashib boradi. Lekin ayrim hollarda madaniyatning ayrim qirralariga e'tibor bermasdan chetlab o'tish hollari uchrab turadi. Masalan, og'irroq yuk ko'targan ayollarga yordam berish, homiylik qilish esimizga kelmaydi yoki ayrim ayollarni ko'pchilik oldida yoshini so'rash hollari uchrab turadi.

Ba'zi yuqori kurslarda qizlar bilan yigitlar o'rtasidagi munosabat talabga javob beradi, deb bo'lmaydi. To'g'ri, bu munosabat ikki tomonga bog'liq. Yigit qizlar huzurida o'zini yigitday to'g'ri, mardona va oliy himmat xamda odobli tutishi, qizlar o'zlariga xos sharmu hayo saqlagan holda yigitdan ularni hurmat etishini talab etishlari kerak.

Talabalar bilan o'qituvchilar o'rtasidagi munosabat haqida gapirganda talabani mutaxassis sifatida yetishtirishda o'qituvchining xizmatlari bebahodir. Talaba buni yaxshi tushunishi kerak. Talaba o'qituvchiga nisbatan yaxshi muomalada bo'lishi, uni o'ta darajada hurmat qilishi kerak. O'qituvchi uchun hurmat belgisi

uning ma'ruzalariga muntazam qatnashish va tinglash, topshirilgan vazifalarni bajarishdir. Lekin, talabaning beparvoligi, beodobligi o'qituvchining diqqatini chalg'itishga, mavzusidan adashib ketishiga olib keiadi, uni g'azablantiradi.

Ba'zi talabalar o'zining o'qituvchiga minnatdorchiligini ifoda qilmoqchi bo'lib, unga biror narsa sovg'a qilmoqchi bo'ladilar. Bu aql idrok va odobu madaniyatdan emas, ayrim zaif talabalar o'qituvchiga pora berishga intiladilar. Bu o'qituvchiga nisbatan hurmatsizlikdir. Bunday talabalar dekanatga chaqirilib, qattiq ogohlantirilishlari kerak.

O'qituvchi uchun eng yaxshi sovg'a uning ma'ruzalarini diqqat bilan eshitib, o'ziashtirish va imtihonda «allo» va «yaxshi» baho olishdir. Talaba dekan va rektor bilan uchrashishi mumkin. Biror ariza bilan murojat qiladigan bo'lsa, talabnoma chiroyli yozilishi, pala partish, grammatik xatolarga serob holda yozilgan bo'lsa rektor yoki dekan arizani takror yozib kelishi haqida ko'rsatma berishi, hatto masala hal bo'lmasdan oqibatsiz qoldirilishi mumkin. Rektor va dekan bilan uchrashganda faqat taklif qilganida o'tirib savollarga qisqa va aniq javob berishi tavsiya qilinadi. Talaba oliy maktab va yotoqxonada xodimlariga nisbatan yaxshi muomalada bolishi, ularni ozodlik uchun intilishlariga yordam berish kerak.

Talabalarining madaniy ma'rifiy tarbiyalarining jihatlarini barchasini sanab chiqish ko'p vaqt talab qiladi. Shulardan muhimlari haqida esga o'sak yomon bo'lmaydi. Bu talabalarining bir-birlariga murakkab sharoitlarda yordam qo'lini cho'zishda, murakkab savollarga javob topishga qiynalgan hamrohlariga tushuntirib berish, pulga muhtoj sharoitlarda ularga yordam berishda ham namayon boladi.

Bundan tashqari, boshqa shaharlardan kelgan talabalar tomonidan ota-onalariga xat yozib turish majburiyat va boshqalar.

Talabalarining madaniy jihatdan tarbiyalashning muhim qirralaridan biri ularning nutq madaniyatlarini takomillashtirishdir. O'zbek tili boy va chiroyli tildir. O'zbek tiliga davlat maqomi berishi haqidagi dokladda tilimizning taraqqiyoti qanday bo'lishi haqida yetarli tavsiyalar berilgan. Bulardan biri adabiy tilimizda gapirganda viloyatlarda rasm bo'lib ketgan shevalar mavjudligidir.

Masalan, Namanganda «kelyapti, boryapti» o'rniga «kelutti, borutti» shevasidagi so'zlar qo'llaniladi, Xorazmda bu tafovut kuchliroq. Ayrim yoshlar jonli tilda uchramaydigan iboralarni ishlatadilar. Masalan, «oq» aroq ma'nosida, «erish» ziyofat, yuvmoq, yangi olingan kiyim yoki imtixonidan o'tgani uchun ziyofat kabi iboralarni ishlatadilar. Oliy maktablarda bunday iboralarni mutlaqo ishlatmasliklari kerak. Nutqda ortiq so'zlarni, chet el so'zlarini ishlatib berish ham yaxshi emas. Shuningdek, talaba ko'cha-kuyda, transpotda, «kampir», «chol ota», «oppoq dada» deb murojaat qilmasligi kerak. Keksa odamlarga otaxon, onaxon deb murojaat qilinsa to'g'ri boladi. Shuningdek, «manavi, anavi» iboralari ham chiroyli chiqmaydi. Boshqalar o'ltirgan joyda ikki kishini pichirlab gaplashishi g'alatiroq chiqadi. Biz nutq madaniyati haqida ayrim misollar keitirdik.

Yotoqxonalarda birga yashagan talabalar bunday kamchiliklarni tugatishda bir-birlarga yordam berishlari kerak.

Talabaning bir sutkadagi faoliyati ikki qismdan iborat bo'lishi mumkin:

1. Auditoriyada o'tkaziladigan o'quv vaqti (ma'ruza, seminar);
2. Mustaqil ishga ajratiladigan vaqt. Bundan tashqari reja tuzganda auditoriyadan tashqari vaqtni ham e'tiborga olish kerak. Institutga borish va uyga qaytish, ovqatlanish, uxlash va boshqalar.

Bundan tashqari, talaba vaqtini rejalaganda, jamoat ishlarida qatnashish, badiiy to'garaklar, kino, teatr, muzeylar, ko'rgazmalar, televideniyaning kuzatish, sport musobaqalarida qatnashish va boshqalarni ko'zda tutish kerak. Fikrimizcha, 1-kurs talabasining o'quv kuni rejimi quyidagicha tavsiya qilinadi;

7:00 - uyqudan turish;

7:30 - qo'lni yuvish, o'rinni yig'ish;

7:40- 7:50 - nonushta;

7:50 - 8:20 - institutga borish;

8:30 - 14:30 - institut mashg'ulotlarida qatnashish;

16:30- 15:00-ovqatlanish;

15:00 - 18:00 - to'garaklarga qatnashish, sport bilan shug'ullanish;

18:00- 19:00-kechki ovqat;

19:00 -21:00- mustaqil o'quv ishlari;

21:30 - 23:30 - kitob, gazeta jurnallarni o'qish, teleko'rsatuvlarni tomosha qilish, dam olish;

23:30 - 24:00 uxlashga tayyorlanish, yuvinish, uxlash.

Biz bunda o'rtacha kundalik ish grafiginini berdik. Bu grafikka asoslanib dars jadvali asosida kundalik grafik tuzish mumkin.

Kundalik grafik sxemasining shakli quyidagilardan iborat:

Fanlarni mustaqil o'rganish	Vaqt minut hisobida
Iqtisodiyot nazariyasi	80
Pedagogika-Psixologiya	50
Chet tili	60
Tarix, Geografiya	50

Har bir talaba har semestr uchun har bir fan bo'yicha yuqoridagi shaklda mustaqil ishlash rejasini tuzib chiqishi kerak. Har bir fan bo'yicha mustaqil ish rejasini tuzilsa, talaba faoliyatini rejalashtirishga yordam beradi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Talabaning huquqlarini ayting.
2. Talabaning vazifalarini ayting.
3. Talabaning majburiyatlarini ayting.
4. Talabaning nutq madaniyati qanday bo'lishi kerak?.
5. Mustaqil ishga qo'yiladigan talablar.

6-mavzu: Mutaxassislik fanlarini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning tutgan o'rni va ahamiyati

O'quv maqsadi: Talabalarga bilimlarning ko'nikma va malakalarga aylanish texnologiyasi haqida tushuncha berish, iqtisodiy fanlarni o'qitishda aniq muammoli vaziyat (case method) usulidan foydalanishni o'rgatish, iqtisodiy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining tashkiliy-boshqaruv modellari haqida ma'lumot berish.

Tayanch so'z va iboralar: Bilim, ko'nikma, malakalar, muammoli vaziyat (case method) usuli, model, kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur, o'quv jarayoni, axborot texnologiyalari, umumkasbiy malaka.

Asosiy savollar:

1. Bilimlarning ko'nikma va malakalarga aylanish texnologiyasi.
2. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda aniq muammoli vaziyat (case method) usulidan foydalanishning ustivor jihatlari
3. Iqtisodiy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining tashkiliy-boshqaruv modellari.

1. Bilimlarning ko'nikma va malakalarga aylanish texnologiyasi

Davrning dolzarb muammolaridan biri-talatabarning kasbiy mahoratini oshirish, ularda muhim kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishdan iborat.

Bilim, ko'nikma va malakalarni egallash ta'lim jarayoni negizini xarakterlab, uning asosi, muhim sharti sifatida yuzaga chiqadi. Shunga ko'ra pedagogika nazariyasi va amaliyotida ushbu tushunchalar fundamental ahamiyatga ega. Bilim, ko'nikma va malakalarning mazmuni hamda ularning shakllanish jihatlari psixologiya, didaktika, xususiy metodika va amaliy mashg'ulotlarga oid adabiyotlarda nazariy jihatdan asoslab berilgan. Bu tushunchalarga aniq ta'rif berilganiga qaramay, mazkur tushunchalar yanada chuqur o'rganish va nazariy jihatdan har tomonlama asoslanishga muhtoj.

Bilimlar qotib qolgan o'zgarish hodisa emas. Jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyoti davomida bilimlar ham uzluksiz aniqlanib, rivojlanib, chuqurlashib va ba'zan jiddiy o'zgarishlarga uchrab, takomillashib boradi. Pedagogika nazariyasida bilimlarga xos bo'lgan ushbu omilni hisobga olgandagina ta'lim mazmunining ilmiyligi ta'minlanadi.

O'quv predmeti doirasida taqdim etiladigan bilimlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

- a) muvofiq tarzdagi fan asoslarini ifodalovchi ilmiy bilimlar,
- b) dolzarblik va turg'unlik jihatiga ko'ta o'zgaruvchan bo'lgan axborotlar ko'rinishidagi ilmiy ma'lumotlar.

Ilmiy ma'lumotlar odatda nazariyalarning mahsuli sifatida yuzaga keladi. Bu

bilimlarning muntazam jamlanishi hozirgi fanning muayyan holatini ifodalovchi deduktiv tizimidagi axborotlar hajmini ortib borishiga olib keladi, lekin mazkur fan negizini tashkil qiluvchi bilimlar tizimiga hech qanday o'zgartirish kiritmaydi. Bu holda yangi ma'lumotlarning faqat bir qismigina ilmiy nazariyaning asosiy holatlarini o'zgartirib borish uchun xizmat qiladi. Bunday holda bilimlar qanchalik umumlashgan bo'lsa, ular shunchalik turg'un xarakterga ega bo'ladi.

Tabiiyki, o'qituvchi talabalar bilish faoliyatini boshqarish jarayonida ularga ma'lum bir fanga oid fundamental bilimlar bilan bir qatorda shu bilimlarni boyituvchi, ular orasidagi turli aloqadorlik va munosabatlarni namoyish qiluvchi, jamiyat va shaxsning muntazam ortib boruvchi ehtiyojlarini, hayotdagi mavjud muammolarni ifodalovchi joriy axborotlarni ham berib borishi lozim.

Bilimlar o'rganilayotgan asosiy jihatlarni mantiqiy ketma-ketlikda qamrab olishi, o'zaro bog'liq bo'lishi va har bir o'rganilayotgan tushunchadagi barcha ahamiyatli jihatlarni ochib berishi, ya'ni, izchil bo'lishi lozim. O'zlashtiriladigan bilimlarning asosiy sifati - ularning anglanganlik, tushunilganlik darajasida ifodalanadi. Utar talabaning buyum va hodisalarni nafaqat tavsiflab bera olishi, balki o'rganilayotgan dalillarani asoslab xulosalar chiqara olishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, bilimlar o'rganilayotgan buyum, hodisalar mazmuni va qarash ko'lamining kengligiga xizmat qiluvchi mukammallikka ega bo'lishi lozim.

O'zlashtiriladigan bilimlar - hosil qilinadigan ko'nikma va malakalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ko'nikma va malakalarning mazmuni va o'zaro nisbati haqida bir qancha qarashlar mavjud.

Didaktikada mavjud bo'lgan an'anaviy nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, ko'nikma malakadan oldin hosil bo'ladi. mashqlar bajarish natijasida ko'nikma malakaga aylanadi.

Ko'nikma-harakatlarni samarali bajarish imkoniyatidir; ko'nikma-ma'lum darajada o'ylab bajariladigan harakatlar majmuidir; ko'nikmalar-qandaydir harakatni yangi sharoitlarda bajarishning usulidir, ko'nikma-murakkab tizimli psixik va amaliy harakatlarga ega bo'lish demakdir». «Ko'nikma bu harakatdagi bilim» hisoblanadi.

Malakani quyidagicha ta'rifiymiz: "Malaka-yuqori o'zlashtirilganlik darajasiga ega bo'lgan harakatlar yig'indisidir; malaka-mashqlar natijasida mustahkamlangan harakat usulidir; malaka-bilim va ko'nikmalar zaminida shakllanadi».

Yuqoridagi mulohazalardan ayon bo'lib turibdiki, ko'nikma va malaka tushunchalarining mazmun va mohiyati xususida turii fikrlar mavjud.

Chunonchi, talabalarda uniummehnat va kasbiy malakalar quyidagi bosqichlarda shakllantiriladi:

Birinchi bosqich - malakani shakllantirishning dastlabki bosqichida talabalarga o'zlashtirishlari lozim bo'lgan harakatni bajarish tartibi tushuntiriladi. Harakatni bajarish usulini bilish uni to'laqonli bajarishni ta'minlay olmasa-da, malakaning shakllanishi uchun zarur omil bo'ladi. Talabada harakatlar bilan tanishish uni o'rganishga qadar, ya'ni, malaka shakllangunga qadar amalga

oshadi. Lekin harakat vazifasi bilan yuzaki tanishish va uni tavsiflash malaka shakllanishi uchun etarli emas, harakatlar bajarilishini o'qituvchi rahbarligida chuqur va mustahkam o'zlashtirish lozim. Harakatlarni bajarishga o'rganishning dastlabki bosqichlarida pedagogning vazifasi harakat tartibini tushuntirish, ularning amaliy ahamiyatini ko'rsatish, talabalar bilimlarini chuqurlashtirish va tizimlashtirish bilan, boshqacha qilib aytganda, unga mashqlar tavsifi va maqsadi, qanday o'zlashtirish kerakligi to'g'risida aniq bilimlar berish bilan belgilanadi.

Ikkinchi bosqich - malakalar shakllanishi asosini tashkil etuvchi qoidalarni shakllantirish va bilimlarni o'zlashtirish, qayta tiklash bosqichi hisoblanadi.

Uchinchi bosqich - navbatdagi mashqlarni bajarish jarayonida turg'unlashib qolishi mumkin bo'lgan harakatlar, boshlang'ich xatoliklarni bartaraf qiluvchi namunalarni namoyish qilish bosqichidir. O'qituvchi u yoki bu harakatlarni qanday amalga oshirish lozimligi, ish jarayonida talaba duch keladigan qiyinchiliklarni ko'rsatib beradi.

To'rtinchi bosqich - harakatni amaliy o'zgartirish, malakani shakllantirish bilan belgilanadi. Malakaning shakllanishi harakatni bajarish usulini takomillashtirishga qaratilgan mashqlar jarayonida amalga oshadi. Bunda talaba anglangan holda qoidalardan foydalana boshlaydi. Bu o'rinda harakatlarni tahlil qilish, xatolarni o'rganish va ularni oldini olish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Beshinchi bosqich – mustaqil va tizimli bajariladigan mashqlardan iborat bo'ladi. Bu mashqlarda murakkabligi oshib borishi bilan birgalikda ularning hilma-xilligiga e'tibor beriladi, shunga muvofiq faoliyat qiziqarli va ko'pchilik hollarda ijodiy tavsifga ega bo'ladi.

Malakalar shakllanishida mashqlarni vaqt bo'yicha taqsimlash muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Uzoq vaqt davomida uzluksiz bajariladigan mashqlar natijasi toliqish tufayli kutilgan samarani bera olmaydi. Bundan kelib chiqadiki, mashqlarni boshqa turdagi faoliyat yoki dam olish bilan almashtirib olib borish lozim.

Mashqlar samaradorligiga ular orasidagi tanaffuslar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Juda cho'zilib ketadigan tanaffuslar mashqlar natijasini yomonlashtiradi va ularga sarflanadigan vaqt hajmini ko'paytiradi. Psixologik tadqiqotlarni ko'rsatishicha, mashqlarni quyidagicha taqsimlash eng qulay hisoblanadi: ta'lim boshida tez-tez takrorlash va asta-sekin ular oralig'ini oshirib borish.

Malakalarning shakllanib borish darajasini harakatlarni bajarish tezligi va aniqligiga ko'ra bilish mumkin. Bundan tashqari, harakat natijalari turg'unligi ham ahamiyatli omil hisoblanadi. Yuqori darajada shakllangan malakalar harakatlarni bajarishdagi a'lohida muvaffaqiyatlar bilan emas, balki davomli ravishda yuqori natijalarga erishib borish bilan belgilanadi. Agar harakatlarni bajarishning yaxshi natijalari uni yangi, yanada murakkab harakatlar tizimiga kiritilishidan saqlansa, bu to'laqonli shakllangan malakadan dalolat beradi va uning shakllanganligining yana bir muhim mezonini hisoblanadi.

Mashqlar davomida malakalar moslashuvchanlikka ega bo'la boradi, ya'ni, harakatni bajarish holatlariga ko'ra mos uslublarni tanlash qobiliyati hosil bo'ladi.

O'quv ustaxonalarida talabalar kerakli malakalarni rivojlantirish va o'rganuvchi mashqlarni bajarishga deyarli vaqti bolmaydi.

Muayyan mehnat turi shuningdek, har bir kasbga o'ziga xos ko'nikma va malakalar mos keladi. Aniq mehnat tutlarining soni juda ko'p bo'lganligi sababli oliygohlar talabalarini barcha turdagi kasbiy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishga qodir emas. Buning uchun zaruriyat ham yo'q. Malakalar ko'chish xususiyatiga ega. Ushbu xususiyut bir faoliyat turida o'zlashtirishni bir muncha osonlashtiradi Shu sababli, tabalarni eng umumiy va tipik faoliyat turiga oid ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish lozim.

Malakalarning ko'chishida ularni o'zlashtirishning mohiyatini anglanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lum bir malakani o'zlashtirishda talaba nafaqat mos harakatlarni, balki uni muvaffaqiyatga olib keluvchi usul va yo'llarni ham o'zlashtiradi. Keyingi faoliyatida uning ilgarigi tajribalaridan foydalanishi, yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslik va buning natijasida yangi malakalarni o'zlashtirishi osonlashadi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonni ta'lim nazariyasi faoliyati nuqtai nazaridan qarab chiqib, xalq ta'limi sohasidagi barcha ta'lim-tarbiya ishlarini pedagogik texnologiya yo'nalishiga o'tkazish, maktab amaliyotidagi ixtiyoriylikdan uning har bir jihatini jiddiy asoslashni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz.

Xulosa o'rnida iqtisodchi-pedagog yo'nalishidagi ta'lim muassasalarning ta'lim tizimida, pedagogik texnologiyani amalga oshirishning umumlashgan sxemasini keltiramiz. Tajriba ishlarini amalga oshirishda undan uslubiy asos sifatida foydalanilganligini ta'kidlab o'lish joiz:

- umummehnat va kasbiy malakalarni rivojlantirishda o'qitish vositalarini qo'llashga oid ta'lim mazmunini ishlab chiqish;
- talabalarning istiqbol faoliyatini tahlil qilish, mehnat ta'limi jarayonida hal qilinishi lozim bo'lgan maqsad va vazifalarni belgilash;
- oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlarida talabalar tomonidan O'TVlaridan foydalanish texnologiyasini o'zlashtirishlari uchun vaqtning o'rmini belgilash;
- talabalarda ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish;
- talabalar bilim, ko'nikma va malakalarining sifatini nazorat qilish bilan bog'liq ob'ektiv nazoratni tashkil etish va testlar tizimini ishlab chiqish;
- ishlab shiqilgan pedagogik texnologiyani amalda sinash va uni o'quv jarayoniga tadbiiq etish.

2.Iqtisodiy fanlarni o'qitishda aniq muammoli vaziyat (case method) usulidan foydalanishning ustivor jihatlari.

Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturning maqsadi-ta'limsohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan dcmokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir

Dastur maqsadlaridan kelib chiqqan holda,bugungi kunda ta'lim jarayonida

jahonda to'plangan boy tajribalardan keng va samarali foydalanishga qaratilmoqda. O'qitishning aniq muammoli vaziyatlar (Case method) usuli shunday samarali usullardan biridir.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda aniq muammoli vaziyatlar(Case method) usulidan foydalanish quyidagilarni ta'min etadi:

- o'quvchilarga bilim, tajriba va kuzatuvlar nuqtai nazaridan muammo echimiga turlicha yondashuvlar bilan tanishish imkoniyatini beradi;
- ko'plab echimlar qabul qilish imkonini beradi;
- o'quvchilarni harakat qilishga o'rgatadi (boshqaruv bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qiladi);
- boshqaruv ishiga o'zini tayyorlayotganlarga o'z fikrlarini o'rgatadi;
- o'z echim va tavsiyalarini "miqdor" va "sifat" jihatdan asoslash jarayonida ko'nikmalar va tahlil etish imkoniyatlarini rivojlantirishga ko'maklashadi;
- hamkasblari oldida o'z xulosa va dalillarini himoyalashga majbur etadi;
- boshqaruvda sodir bo'ladigan jarayonlarni yaxshi tushunishga imkon beradi;
- mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- to'g'ri echimlar qabul qilishga o'rgatadi;
- shaxslar va guruhtararo samarali kommunikasiyani ta'min etadi;
- qabul qilingan echimlar uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga o'la bilishga o'rgatadi;
- menejerlik xususiyatlarini shaxsda mujassamlashtiradi;
- to'g'ri savol berishga o'rgatib boradi.

Muammoning yagona echimi yo'qligi va uning boshqa muqobil variantlari ham mavjudligiga o'rgatib boradi.

Iqtisodiy va pedagogik fanlarni o'qitishda aniq muammoli vaziyatlar usulidan foydalanishdan asosiy maqsad- talabalarnipedagogik va tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlaydi, har bir talabaga amaliy va kasbiy ta'lim berilishini ta'min etadi.

Muammoli aniq vaziyat iusuli (Case stady) - bu rahbar yoki rahbarlar guruhi duch kelgan, uning rivojlanish va vujudga kelish tarixini o'z ichiga qamrab olgan biror bir aniq holatni o'rganish va tahlil etish va shu orqali uning mumkin bo'lgan muqobil echimlarini izlab topishdir. Quyida o'qitishning ma'ruzali usuli bilan aniq muammoli vaziyatlar usuli o'rtasidagi asosiy farqlovchi xususiyatlar keltirib o'tiladi;

Farqlovshi ko'rsatkichlar	O'qitish usullari	
	Ma'ruza	Muammoli aniq vaziyat usuli
Maqsad	Bilim berish	-Fikrlash; -Muammoni hal etish ko'nikmalari; -Kashfiyotlarga intilish, hamkorlikka tayyor bo'lish sifatlarini rivojlantirish.

O'qituvchi vazifasi	O'z fanining mazmunini bilishi	-o'z fanining mazmunini bilish. -Muhokama jarayonini boshqara bilish.
“O'qituvchi-o'quvchi” munosabatlari	O'qituvchining o'quvchi ustidan hukmronligi Ierarxiya huquqlarning teng emasligi	-Sheriklik -hamkorlik
Talabalarning o'zini-o'zi o'qitish jarayonida ishtiroki	Sust	Faol (talabalar o'qituvchining vazifasi hisoblanuvchi muhokama rejasini tuzish, asosiy mavzuni aniqlash kabi vazifalarni o'zlari mustaqil hal etishga qodir bo'ladilar)
Ma'suliyat	Ma'suliyat to'la ma'ruzachining zimmasida	Ko'proq ma'suliyat tinglovchilar zimmasida
Tadqiqotlar ko'lami	Fan doirasida	Fan doirasi har talabaning intellekt, intilish kabi sifat xususiyatlari
Vaqt sarfi	Nisbatan kam	Yetarlicha ko'p
O'rganish darajasi	Axborot qabul qilish ushun qoniqarli	Tahlil etish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. O'rganish darajasi bir xil emas.

Ta'lim jarayonida nazariy bilimlarning amaliyot bilan qo'shib berilishi muhim muammolardan biri bo'lib qolayotgan bir paytda, o'qitishning ushbu usulidan ta'lim jarayonida foydalanish mavjud muammoning ma'lum darajada echim topishiga imkon yaratadi.

3. Iqtisodiy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining tashkiliy-boshqaruv modellari.

Talabalarga iqtisodiy ta'limlarni berish pedagogik foliyatda kompyuterni muqobil tuzilmaviylashtirilgan va kirish nisbatan oson bo'lgan axborotlar ombori sifatidagi tutgan o'rni talabalarni bilim olishlarida katta hajmdagi taktik materiallarni eslab qolishdan ozod qilibb, bu jarayonda talabalar foliyatini amaliy va o'quv masalalarini echish uchun zaruriy axborotlarni izlashni amalga oshirish va bu axborotlar asosida bliimlarini chuqurlashtirish, ularda real sharoitlarda qaror qabul qila olish ko'nikmalarini rivojlatirishga maqsadli yo'naltirib, eng muhimi, moliyaviy masalalarni echishda aynan qanday axborotlarni zarurligini aniqlashni bilish, ya'ni kompyuter va talaba o'rtasida bilimni taqsimlash, talabada ekspert sifatini shakllantirish masalasi turadi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, bizning

fikrimizcha, iqtisodiy pedagogika tizimi uchun yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o'quv jarayonlarida axborot texnologiyalaridan foydalartish to'g'ridan-to'g'ri oliy o'quv yurti oldida turgan strategik maqsadlarga bog'liq holda o'ib borilishi lozim, ya'ni nafaqat ijrochi mutaxassislarni tayyorlash, balki kasbiy faoliyatni o'zgarib turuvchi sharoitlarida iqtisodiyot va pedagogika sohasidagi o'zgaruvchan nostandart masalalarni echishda doimiy ravishda o'z-o'zini takomillashtirishga qobiliyatli, ijodiy rivojlangan jahon andozalari talablariga javob bera olatiigan yeluk mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir.

Aytilganlardan kelib chiqib, oliy o'quv yurtlarida iqtisodiy ta'lim berish axborot texnologiyalarini qurishni quyidagi tarkibdagi tashkiliy-boshqaruv modelini shakllantirish mumkin; (chizmaga qaralsin)

Modelda asosiy baza sifatida mutaxassis normative-funksional modeli yotadi. Normativ-funksional modelning asosiy xususiyati shundan iboratki, unda O'zR OO'MTVning OO'Yu bitiruvchisiga qo'yadigan standart talablarni e'tiborga olish bilan birga TBAT tarkibida ko'rsatilgan modellarni bo'lishi har qanday ta'lim axborot texnologiyalarini loyihalashtirish oldida turgan bir qator savollarga javob topishga imkon beradi.


Tashkiliy-boshqaruv modeli normativ-funksional tarkib bilan birgalikda tuzilmaviy jihatdan o'quv fani modeli, ta'lim oluvchi modeli, ta'lim beruvchi modeli va dars jarayonini boshqarish kabi didaktik modellarni o'z ichiga oladi.

O'quv fani modeli (nimaga o'rgatish?) o'z ichiga o'qitish maqsadi, bilimlar, ko'nikmalar, kasbiy yo'naltirilgan tizim xususiyatlari, predmet sohani o'rganish chuqurligi va darajasi. axborot hajmi va didaktik falablar: mazmunni ilmiyligi, tizimlili, ta'limni uzluksizligi va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim jarayonini boshqarish modeli (qanday o'qitish kerak?) ta'lim berish axborot texnologiyalarini tarkibiga kiruvchi pedagogik dasturiy mahsuloti ssenariylari xususiyallarini e'tiborga oladi

Ta'lim oluvchi modeli (kimni o'qitish?) ta'lim oluvchini shaxsiy, psixofiziologik va ijtimoiy-psixologik sifatlarini, ularni kompyuterlar va axborot vositalari bilan ishlashga tayyorgarligini, bazaviy va joriy bilimlar darajasini e'tiborga olish va tahlil qilishga imkon beruvchi talabaniq aniq shaxs sifatlarini

shakllantirish jarayonlarini o'z ichiga oladi.



Ta'lim beruvchii (kim o'qitishi?) modeli - o'qituvchining shaxsiy sifatlari - pedagogik mahorati, predmet sohasi bilimlarining chuqurligi, ta'lim berishning zamonaviy usullari va uslublariga egaligi va boshqalarni e'tiborga oladi.

Yoritilgan modelga mos holda ishlab chiqiladigan TBAT quyidagilarga imkon beradi:

- o'rganilayotgan mavzuni o'zlashtirilish sifatini oshiradi va talaba bilimlari darajasini e'tiborga olgan holda qo'sha talablar qo'yishga imkon beradi;
- laboratoriya ishlari natijalariga ishlov berish, tahlil qilish va taqdim etish muddatini bir necha marta qisqartirib talabalarni mustaqil fikrlashga chorlaydi va ularda zarur sharoitlarda qaror qabul qilish ko'nikmalarini hosil qiladi;
- talabalarni bilim va ko'nikmalariga ega bo'lish jarayonlarini operativ nazorat qilishni, har bir talaba va butunlay guruhni o'zlashtirish statistika va diagnostikasini yuritishni amalga oshiradi, bu esa talaba bilimlarini etarlicha ob'ektiv baholashni amalga oshirishga yordam beradi;
- o'qituvchiga alohida talaba yoki butunlay guruhning bilim darajasini nazorat qilishi va talabalar to'g'risidagi aniq axborotlar bilan ta'minlanishiga imkon beradi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar;

1. Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasiurida yangi pedagogic

- texnologiyalarni qo'llash haqida.
2. Yangi pedagogik texnologiyalarning turlari va shakllari.
 3. Mutaxassislik fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni tutgan o'rni va ahamiyati.

7-mavzu: Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonining ilmiy asoslari

O'quv maqsadi: Oliy o'quv yurtida o'quv mashg'ulotlarining turlari haqida tushuncha berish, ma'ruza, seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishni o'rgatish va ma'ruzaning bosqichlariga ta'rif berish,

Tayanch so'z va iboralar: Maslahat, seminar mashg'uloti, ma'ruza, amaliy ish o'yinlari, ilmiy seminar;

Asosiy savollar:

1. O'quv jarayonining ilmiy asosda tashkil qilingan yo'nalishlari.
2. Ma'ruza mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish.
3. Seminar mashg'ulotlari, maslahatlar, amaliy mashg'ulotlar, ilmiy saminarlarni o'tkazish.

1. O'quv jarayonining ilmiy asosda tashkil qilingan yo'nalishlari

Umum ta'lim maktablarida o'quv ma'lumotlarining asosiy turi dars bo'lsa, institutda o'quv mashg'ulotlarining bir necha shakllaridan foydalaniladi.

O'quv jarayonining ilmiy asosda tashkil qilish uchun quyidagi yo'nalishlarda tadbiriy ishlar olib boriladi:

- 1) ma'ruzalar;
- 2) seminar mashg'ulotlari;
- 3) amaliy mashg'ulotlar
- 4) laboratoriya mashg'ulotlari;
- 5) davra suhbatlari va konferensiyalar;
- 6) maslahatlar;
- 7) malakaviy amaliyot;
- 8) kurs ishlari;
- 9) bitiruv malakaviy ishlari;
- 10) referatlar;
- 11) ilmiy seminar;

Bu o'quv mashg'ulotlari, talabdan o'ziga hos metodik yondashuvni, yuksak saviyada tayyorgarlikni, faollik va uyushqoqlikni talab qiladi.

Biz ko'rsatilgan yo'nalishlarning ayrimlari haqida qisqa ma'lumotlar beramiz.

Bu ma'lumotlar va tavsiyalardan foydalanish talabalar uchun muhim ahamiyatga egadir. Lekin malakaviy amaliyot, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari haqida keyingi mavzular tarkibida tushuntirib o'tamiz.

2. Ma'ruza mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish

Tushuntirishni ma'ruza haqidagi fikrlarni umumlashtirishdan boshlaymiz.

Institutlarda o'qitishning turli shakllari orasida ma'ruza yetakchi o'rin egallaydi. Ma'ruzaga kelgan talaba boshqa narsalarga diqqat bermasdan ma'ruzani bir so'zini ham qoldirmasdan eshitishga harakat qilishi kerak. Ma'ruza barcha o'quv jarayonining 40-45 foizini tashkil qiladi. Ma'ruzaga kelayotgan talaba tegishli daftar, qalam, ba'zan, yon daftar olib kelishi kerak. U ma'ruzada tushunmagan narsalarni daftarga, asosan ma'ruzani eshitish va uning asosiy mazmunini yozib borishi kerak. Ma'ruza davomida o'zaro gaplashish, gap uzatish taqiqlanadi. Agar talaba ma'ruzaga qadar o'qiladigan mavzu bilan tanishsa ma'ruzani eshitishga zamin hosil qiladi. Ma'ruza materiallaridan seminarga tayorlanishda foydalaniladi. Ma'ruza talabaning barcha ishlarining ko'lamini belgilab beradi.

Ma'ruza talabalarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini: ilmiy qarash, bilim asoslarini egallashlariga yondashuvni shakllantirishi kerak.

Har bir ma'ruza talabaga nimalarni bilib olishni, qanday adabiyotlar va birinchi manbalarni o'qishni va konspekt olishni belgilab beradi. Talaba ma'ruzani tinglash bilan birga yozib borishni ham bilishi lozim. Ba'zi talabalar ma'ruzani so'zma-so'z yozishga harakat qilishi, aslida ma'ruzani mazmuni o'z so'zi bilan yozib olishi tavsiya qilinadi. Bunda talaba har bir ma'ruzani ham tinglab va ayni vaqtda yozib berishga odatlanishi kerak. Qisqartirib yozishni o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga bir masaladan ikkinchi masalaga o'tganda, ikki masalani chegarasini belgilash kerak.

Oliy maktabda ma'ruzaning bir qancha turlaridan foydalaniladi. Bulardan eng ko'p qo'llaniladigan ma'ruza o'quv dasturi asosida o'qiladigan ma'ruza yoki akademik ma'ruza deb ataladi. Bundan tashqari ma'ruza suhbat, hikoya, ma'ruza munozara va boshqa ma'ruza xillari bor. Ma'ruzalardan doklادلarni farq qilish kerak. Doklادلar bir mavzuga bag'ishlangan bo'lib, ko'proq majlislarda, sessiyalarda tashkil qilinadi. Ma'ruzalarni eshituvchilarga borib yetishida lektorning mahorati va bir minutda so'zlash tezligi ham a'lohida ahamiyatga ega. Ma'ruza past sur'at bilan oqilsa, ma'ruzada bir minutda 40-50, o'rtacha holatda 60-80, yuqori darajada 110 so'z bo'lishi mumkin. Mazmun jihatidan ma'ruza adabiyoltardagi masalalarni umumlashtirish, takrorlash bilan chegaralanmasdan, balki hali yetarli ma'lum bo'lmagan masalalarni ko'rsatib chiqishi kerak. Bundan tashqari ma'ruzada sxema, jadvallar, maketlar, xarita va boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalanish tavsiya qilinadi. Talabalar birinchi kursdan ma'ruzalarining mohiyati, ahamiyatini tanlangan ixtisosi bo'yicha bilimlarini egallash, o'zida mustaqil dunyo qarashni shakllantirishga ahamiyat berishi kerak.

Har bir talaba ma'ruzani yaxshi o'zlashtirib olishi uchun quyidagi bosqichlarga

rioya qilishi lozim:

- 1) ma'ruzani tinglashga tayyorgarlik ko'rish;
- 2) ma'ruzani diqqat bilan tinglash;
- 3) yozib olishga harakat qilish;
- 4) yozib olingan tekstni o'rganish va qayta ishiab chiqish;
- 5) ma'ruzani tinglash jarayonida mustaqil fikrini rivojlantirishga alohida ahamiyat berishi kerak.

Lekin ayrim talabalar lektor aytgan ayrim masalalarni yozib olish qobiliyatiga ega emaslar. Shu sababdan ayrim mulohazalarni oldin tushunib olib keyin yozib olishlari kerak. Bunda ayrim so'zlarni qisqartirishga to'g'ri keladi. Shunday qilib, o'qituvchi o'z ma'ruzasini boshlamasdan oldin yangi ma'ruzani rejasi bilan tanishtiradi, ma'ruza rejasida 3-5 ta masala qo'yilishi mumkin. Birinchi masalani tushuntirib bo'lgandan keyin ikkinchi masalaga o'tiladi. Agar o'tgan ma'ruzada ba'zi masalalar yoritilmay qolgan, vaqt yetishmay oldin yoritilmay qolgan masala yoritilib, keyin yangi mavzu boshlaymiz deb yangi mavzuni nomi va uning rejasi bilan talabalarni tanishtiradi. Birinchi masalani tushuntirishni boshlaydi.

Ma'ruza to'g'risidagi fikrlarni umumlashtirar ekanmiz quyidagi xulosalarga alohida ahamiyat berish kerak:

- 1) ma'ruza talabaning barcha ishlari ko'lamini belgilab beradi. Seminarlar o'quv masg'ulotlarini barcha xillari ma'ruza materiallarini o'zlashtirish bilan belgilangan;
- 2) ma'ruzalar o'quv rejasiga kirgan fanlarning chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Talaba ma'ruza orqali ayrim fanlarni bir-biri bilan bog'liqligiga alohida e'tibor beradi, talabaning fanga qiziqishi ortadi;
- 3) ma'ruzalar talabalarning mustaqil fikr yuritish elementlarini egallashga yordam beradi;
- 4) ma'ruza hali matbuotda yoritilmagan va ko'pchilikka yetarli ma'lum bo'lmagan yangiliklar bilan tanishish va bu yangiliklarni fikrlash ta'sir ko'satadi;
- 5) ma'ruza mustaqil ishlashning har bir mavzu bo'yicha yo'nalishini belgilab berishga yordam beradi;
- 6) ma'ruzani tarbiyaviy ahamiyati katta. Talabalar ma'ruza orqali o'zlaridagi kamchiliklarni sezib ularni tugatish to'g'risida fikr yurita boshlaydilar

Talabalar barcha ma'ruzalarga qatnashishlari lozim, chunki yaxshi ma'ruza ishning yarmisi bo'lib, uning materiallarini o'zlashtirish talabaning mustaqil ishlashiga bog'liq. Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatadiki, ayrim talabalar ma'ruzani stenografistkaga o'xshab hammasini yozishga harakat qiyadilar, lekin o'zlari yozgan fikrlarni tushunmaydilar. Demak, ma'ruzani yozganda uning mazmunini tushunib qisqartirib yozish kerak.

Ma'ruza ko'p qirrali jarayon bolganligi uchun bir mavzuni tushuntirishda uning barcha qirralarini qamrab olish mumkin *emas*. Ma'ruzada mahalliy materiallardan foydalanish, misol keltirishni foydali ekanligini ko'rsatib o'tamiz.

Bundan tashqari ma'ruzada foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatiga ahamiyat berib, undan samarali foydalanish kerak.

Shunday qilib, ma'ruza davomida lektorning tushuntirishidagi fikrlash izchilligiga ahamiyat berib, ma'ruzani sifat jihatidan takomillashtirib borishga ahamiyat berish kerak.

Shunday qilib, ma'ruza davomida talabalar bilan lektor o'rtasida ijobiy munosabat shakllanishiga ahamiyat berish kerak, ma'ruza davomida talabaning bilim elementlarini jamg'arishga qiziqishi ortishi lozim.

3. Seminar mashg'ulotlari, maslahatlar, amaliy mashg'ulotlar, ilmiy seminarlar o'tkazish

SEMINAR MASHG'ULOTLARI

Seminar ma'ruzada bayon qilingan materiallarni talabalar tomonidan qanday o'zlashtirilayotganini tekshirib ko'rish maqsadida o'tkaziladi. Ayni vaqtda mustaqil ishlashni tarkibiy qismi hisoblanadi. Seminarda ma'ruza materiallari umumlashtiriladi, chuqurlashtiriladi. Seminar mashg'ulotlari ma'lum mavzuga bag'ishlanib, dastlab uning mazmuni e'lon qilinadi. Shu bilan birga seminar mustaqil fikrlashning usullardan biri. Uning o'tkaziladigan vaqti oldindan xabar qilinadi.

Institutda o'qitiladigan ijtimoiy fanlar bo'yicha O'zbekiston tarixi, iqtisodiy nazariya, siyosatshunoslik va boshqa fanlardan seminar o'tkaziladi.

Seminar mashg'ulotlari ikki xil yo'l bilan tashkil qilinadi.

Oldindan tarqatiladigan savollarni muhokamasi. Bu seminarda bahslashuv qizg'in tashkil qilinadi va bahs ishtirokchilariga o'qinuvchi bahs qo'yishi mumkin.

3-4 ta masala muhokama qilinadi. Bunda har bir masala muhokama qilinib, xulosalar chiqariladi. Seminarining ikkinchi ayrim xilidagi talablarga ma'ruza uchun mavzu berilib, uni talabalar muhokama qiladilar.

Seminarga tayyorlanishning asosiy sharti tavsiya qilingan materiallarni o'rganib chiqish, konspektlashtirishdir. Seminarda muhokama qilingan ma'ruzalar bo'yicha o'zaro fikr almashish davom etadi. Seminar oxirida o'qituvchi tegishli xulosa chiqaradi, yaxshi ma'ruzalarni ijobiy tomonlari ko'rsatilib, ayrim yo'l qo'yilgan kamchiliklar ko'rsatiladi.

Agar seminar mavzusiga doir barcha materiallar to'la qamrab olinmagan bo'lsa, u holda ma'ruzachiga qayta ishlash tavsiya etiladi. Shundan keyin o'qituvchi navbatdagi seminar mavzusini e'lon qilib talabalarga ushbu mavzu bo'yicha ham tayyorgarlik ko'rob kelishlarini tayinlaydi.

MASLAHATLAR

Maslahatlar ko'pincha ma'lum kurs materiallari o'tib bo'lingach, undan olinadigan sinov va imtihonlardan yoki o'zlashtirmagan talabalar bilan yakka holda yoki guruh bo'lib o'tkaziladi. O'qituvchi talabalarni tushunmagan savollariga javob beradi. Bundan tashqari talabalar ayrim masalalarni yecha olmaganlarida mutaxassislardan yordam so'rab murojaat qilishlari mumkin.

Talabalar mustaqil ishlashining samaradorligi imtihon va sinovlarda o'z ifodasini topadi.

TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Institutda bir yilda ikki marotaba imtihon o'tkaziladi. Imtihon o'quv jarayonining muhim qismidir. Shu bilan birga imtihon talabaning faoliyatida eng javobgar, qiyin bosqich bo'lib, bu bosqich talabaning jamiyat davlat va o'z do'stlari oldidagihisobotini ifoda qiladi. Imtihonlar talaba olgan bilimlarning mustahkam, qiyin bo'limlarini o'rganishga tayyor bo'lganliklarini ko'rsatadi.

Imtihonlarning muhim ahamiyati shundan iboratki, imtihon har bir fan bo'yicha talabada yetarli tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi. Imtihonga tayyorgarlik jarayonida talaba o'qitilayotgan fan bo'yicha o'zidagi kamchiliklarni bilib oladi va ularni tugatishga harakat qiladi. O'z xotirasida ayrim muhim qoidalarni tiklashga harakat qiladi. Qonunlarni va kategoriyalarni chuqur tushunib olishga harakat qiladi. Shu bilan birga imtihonlar har bir talabada javobgarlik hissini kuchaytirishga yordam beradi. Imtihon jarayonini talaba faqat baho olish uchun o'qimasdan, balki, institutni tamomlagandan keyin hayot tomonidan oldinga surilgan talablarga qay darajada javob berishni anglay boshlaydi. Imtihonlarda yuqori baholarga erishish uchun nima qilish kerak?

Buning uchun semestr davomida harakat qilishi kerak. Imtihonda yuqori natijalarga erishish uchun sinovlarga puxta tayyorlanish talab qilinadi. Talaba barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgandan keyin u imtihonga qo'yiladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. O'quv jarayonining ilmiy asoslariga nimalar kiradi?
2. Ma'ruza mashg'ulotlari qanday o'tkaziladi?
3. Ma'ruza mashg'ilotlariga kontspekt qanday tayyorlanadi?
4. Amaliy mashg'ilotlarga tayyorgarlik ko'rish tartibi
5. Ilmiy seminar nima va u qanday tashkil qilinadi?
6. Mutaxassislik fanlardan nazorat o'tkazish tartibi va shakllari

Foydalanilgan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar: 1,3,26,27,28,29,30.

Qo'shimcha adabiyotlar: 34,39,40,42,43.

8-mavzu: Mutaxassislik fanlarni o'qish jarayonida kitob ustida ishlash.

O'quv maqsadi: Talabalarga kitob tanlash odobi, kitobdan foydalanish odob o'rgatiladi, tezislar va referat tayyorlash haqida tushuncha beriladi.

Tayanch so'z va iboralar: Adabiy kitoblar, huquqiy adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy adabiyotlar referat, tezis, konspekt, kartoteka, internet.

Asosiy savollar:

1. Kitob tanlash odobi.
2. Kitobdan foydalanish odobi.
3. Tezislar va referat tayyorlash

1. Kitob tanlash odobi.

Kitob har bir insonning do'sti va maslahatchisi, inson aqlining chirog'idir va barcha bilimlar bo'yicha fikrlash quroli, xazinalar kalitidir. Shuning uchun ham bizda kitobga hurmat katta. Mamlakatimizda har bir mutaxassis buyuk kitobxon bo'lishga intiladi.

Buyuk kitobxon deganda o'qigan har qanday kitobini bugungi kun bilan bog'lay oladigan kishidir. Buyuk kitobxon kitobga qarab kelajagini ko'rsatadi. Lekin barcha kitoblar bir xil mazmunda va bir xil yo'nalishda emas. Shu sababli barcha kitoblarni uch guruhga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

1. Siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan kitoblar;
2. Badiiy adabiyot durdonalari;
3. Texnika masalalari bilan bog'langan kitoblar.

Iqtisodiy masalalar bilan bog'langan kitoblar hozirda uch yo'nalishda bo'ladi :

1. Davlatning bosh islohotchi bo'lishi va qonun ustivorligi;
2. Xalq manfaatlariga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosat yuritish;
3. Bozor iqtisodiyotiga asta-sekin, bosqichma-bosqich o'tib boorish masalalari.

Hozirda iqtisodiyot bilan bog'langan kitoblar ana shu 3 yo'nalishlarni

ifoda qiladi. Shunday ekan, birinchi navbatda ana shu yo'nalishdagi kitoblarni ustida ishlash mexanizmi qanday bo'lishi haqida fikr yuritishimiz kerak.

Kitob ustida ishlash talabalik yillari faoliyatida markaziy o'rni egallaydi. Bu jiddiy, ma'lumotlar ijodiy, aqliy mehnatdir. Kitob ustida ishlash metodikasini bilish muvaffaqiyat garovidir.

Kitob ustida ishlashning birinchi bosqichi kerakli kitobni tanlashdir. Birinchi bosqichda kitob muallifning familiyasi, ismi sharifi, kitobning ismi, qay erda va qachon nashr qilingani nashriyotning nomi aniqlab olinadi. Demak, har bir kitobda ko'rsatilgan 5 elementga alohida e'tibor beriladi. Lekin ayrim hollarda ba'zi elementlarning bo'lmasligi ham mumkin.

Ikkinchi bosqichda kitob haqidagi qisqacha so'z boshi, kirish, xulosa, rasmlar, diagrammalar, sxemalar bilan tanishib chiqiladi.

Kitob muallifining nomi va kitobning ismi alfavit tartibida berilgani uchun bu kitoblarni ro'yxatini alfavit ro'yxati (katalogi) deb ataladi.

Birinchi kurs talabalariga o'qitiladigan har bir fan yuzasidan o'quv dasturida ko'rsatiladigan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati, shuningdek o'qituvchining o'z asarlarni nomi ko'rsatib, ular tavsifiya qilinadi. Bu bosqichda talabani qiziqtirayotgan adabiyotni mustaqil ravishda topishga odatlantirishga alohida ahamiyat berish kerak.

Har bir kutubxonada bibliografiya bo'limi bor, ana shu bibliografiyadan topish yo'lini o'rganib olish kerak.

Alfavit katalogda kutubxonada mavjud har bir kitob yoki maqola muallifning familiyasi yozilgan kartochkalar maxsus qutichalarda alfavit bo'yicha qat'iy tartibda joylashtirilgan bo'ladi. Kitob yoki maqola muallifi bo'lmasa, katalogga kitob yoki maqola nomining birinchi harfi qo'yiladi.

Alfavit katalogning ahamiyati katta. U kerakli kitoblarni kutubxonada bor yoki yo'qligini aniqlash bilan birga mustaqil ishlashga o'rgatadi, vaqtni tejaydi. Lozim bo'lganda talabaga kutubxona xodimi yordam berishi mumkin.

Sistematik katalogda kitoblar ma'lum bilimlar bo'yicha joylashtiriladi. Masalan, O'zbekiston tarixi, iqtisodiy nazariya va boshqalar joylashtirilgan bo'ladi. Sistematik katalogda bilimlar sohasi bo'yicha hatto gazeta va jurnallar osilgan maqolalarni qochon e'lon qilinganini topib olish mumkin.

Institut kutubxonasida kataloglarga qo'shimcha ravishda ma'lum dolzarb masalalar bo'yicha adabiyotlar ro'yxati ham tuziladi. Masalan, Respublikamizning iqtisodiy rivojlanish tendentsiyasi haqida ma'lum yilga ma'lumotlar kerak bo'lsa bu haqda berilgan maqolalar ro'yxati alohida tuzilib talabalarga taqdim qilinishi mumkin.

Kitob tanlab olingandan keyin kitob ustida ishlashning ikkinchi bosqichi boshlanadi. Bu bosqichda birinchi bosqichdagi ma'lumotlarga asoslanib kitobni so'z boshisi o'qilib kitob kimlarga mo'ljallanganligi qanday materiallarga asoslanib yozilgani va boshqalar aniqlanadi.

Talaba kitobning mundarijasi bilan tanishib boblar, qismlar, paralar, grafalarni nomlariga e'tibor beradi va o'rganishi lozim bo'lgan mavzuga aloqadorligini hisobga oladi. Shundan keyin kitobning xotima qismi bilan tanishadi

va kitobdagi asosiy xulosalarni aniqlaydi. Kitob haqida umumiy xulosaga keladi.

Kitobning uchinchi bosqichida kitobning mutoala qilish u o'qishga kirishishdan boshlanadi. Bu bosqichda talaba kitobning mazmuni va bayon tartibi bilan tanishib oladi. Lekin birinchi o'qishda kitobning to'la mazmun ma'nosini tushunib olish mumkin emas. Kitobdagi asosiy maqsadi ham xotirada qolmasligi mumkin.

Kitobning chinakamiga o'rganish undagi asosiy holatlarini chuqur anglab tushunish uchun uni takror-takror o'qishga to'g'ri keladi. Kitobni o'qish jarayonida yangi so'zlar ilmiy tushunchalar, atamalar uchrasa ularga aniqlab olish zarur.

Bu atamalarni o'zbek ensiklopediyasi, rus tili lug'ati, iqtisodiy terminlar lug'ati, chet tillar bo'yicha so'zlar lug'ati orqali aniqlab olish mumkin. Kitobni faol diqqat bilan o'qilgandagina puxta bilim olish mumkin. Kitobdagi qiyin terminlarni asosiy g'oyalari va qoida ta'riflarni yozib berish maqsadga muvofiqdir. Materialni yozib borganda kishining ko'pgina sezgi his tuyg'u organlari ishlaydi, o'qilayotgan kitob ko'proq esda saqlanib keladi, material yaxshiroq o'zlashtiriladi. Bu nutq madaniyatini takomillashishgayordam beradi.

Kitobda o'zlashtirish qiyinroq material uchrab qolsa o'sha joining qayta-qayta tushunib olguncha o'qish lozim. Kitob mazmunini tushunib olgach, o'z tushunchalari haqida o'ylab ko'rish hotirlab ko'rishga harakat qilish kerak..

Kitobda sxemalar, diagrammalar jadvallari, xaritalar bo'lsa ularni diqqat bilan o'rganish tahlil qilishga harakat qilish kerak, ular kitob mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kitob ustida ishlash murakkab jarayon. Bu tadbirni osonlashtirish uchun ayrim kishilarni tajribalarini o'rganish foydalidir.

Ayrim kishilarni fikriga qaraganda kitob ustida ishlashda asosan to'rtta masalaga e'tibor berish kerak. Birinchidan, o'qilgan materialni tushunib olish va o'zlashtirishdir. Ikkinchi vazifa o'qiganlarni o'ylab ko'rishdir. Uchinchidan, o'qiganlardan xotira uchun zarur bo'lgan ko'chirmalar olishdir. Nihoyat to'rtinchi vazifa bu o'qilgan kitobdan qanday yangiliklar o'rgangani haqida o'ziga hisob berishdir. Shunday qilib, kitob o'qishga kirishgan shaxs nimalarni o'rgangan qanday masalalarga javob topgani haqida o'ziga hisob berishi kerak. Agarda birorta masalaga javob topolmagan bo'lsa, u holda boshqa kitobga murojaat qilish lozimligini ko'zda tutishi kerak.

2. Kitobdan foydalanish odobi.

Ayrim kitobxonlar kitobni ba'zi joylarni o'qimasdan tashlab ketadilar, bu nuqson kitobni o'zlashtirishga halaqit beradi, ayrim fikrlarni noto'g'ri talqinqilishga sabab bo'ladi. Bundan tashqari kitob ustida ishlash jarayonida yangi so'zlar, terminlar ilmiy tushunchalar, ta'riflarni to'la aniqlab yozish kerak.

Bundan tashqari kitob o'qish san'atining ba'zi tajribalari haqida mulohaza yuritishni lozim deb topamiz.

Birinchidan, kitobni to'la tushunish uchun uni qayta-qayta qo'lga olishga odatlanish kerak. Qisqa muddat o'tgandan keyin kitob yana qayta o'qilsa, tajriba

shuni ko'rsatadiki, kitobni qayta o'qiganda kitobxon birinchi marotaba o'qiganga qaraganda ko'proq narsani bilib olishi, ilgari e'tibor bermagan masalalarga ahamiyat berishi mumkin. Shu o'rinda ba'zi qo'shimcha ma'lumotlar bor.

1. Ko'chada ketaturib kitob o'qimang, hatto eng qiziq kitoblarni ham tinch joyda o'tirib o'qigan ma'qul. Bunda kitobni stolga qo'yib o'qish tavsiya etiladi. Moliya institutida Knyazov degan o'qituvchi bo'lgan. U ko'chada ketaturib kitob o'qir esi. Bir kuni darsga kiyimlari loy holda kirib kelgan, u yiqilib tushganda ham kitobdan ko'zini uzmagan.

2. Kitob o'qiyotganda yorug'lik chap tomondan sal-orqaroqdan tushishin kerak.. Stol ustidagi lampalar haddan tashqari yorug' bo'lmasligi kerak. Chiroq kitobdan 50 sm nariga qo'yilishi kitob sahifalariga yorug'lik yetarli bo'lishi kerak.;

3. Kitobni yotib o'qimang. Yoruqlik etarli bo'lmagan joylarda, tramvayda, avtobusda mutoala qilmang, ko'zingizni ishdan chiqarasiz;

4. Surunkasiga 2-3 soatdan ortiq o'qimang;

5. Ovqatlanayotgan vaqtda o'qimang, hayolingiz bo'linib o'qiganligingizni ham bilmay qolasiz. Maxsus daftar tutib o'qigan kitoblaringizdan olgan tassurotlaringizni yozib boring. Ayniqsa maqollar, she'rlarni yozib borishga odatlaning.

O'qilgan kitoblarni konspektivlash yoki konspektivlashtirish mustaqil ishlash va ta'limning shakllaridan biridir.

Konspektivlashtirishning asosiy maqsadi o'qigan materiallarni talabalar tomonidan puxta o'zlashtirish, uning mazmuni bilan chuqur tanishish, asarda bayon qilingan bir-birigao'xshash fikrlarni taqqoslash, umumlashtirish qobiliyatini rivojlantirishdir.

Konspekt haqida umumlashtirgan holda tushuntirganda konspekt "obzor" degan ma'noda ishlatilib, o'qiganlarni qisqasha mazmunini bayon qilish demakdir. Turli yozib borilgan fikrlar orqali talaba o'qigan narsalarining chuqur mazmunini tushunib oladi. Shu bilan birga o'qigan materialni yaxshilab o'zlashtirishga xarakat qiladi. Konspekt sifatida yozish o'qigan narsalarni tezda tiklashga yordam beradi. Bundan tashqari har bir konspekt to'plangan materiallarni o'zlashtirishni tezlashtiradi.

Ko'pgina talabalar konspekt yozishda materiallarni to'g'ridan to'g'ri so'zma so'ziga ko'chirib yozadilar. Bu mutlaqo noto'g'ridir. Ko'chirib yozganda materialni mazmuni uning mohiyati to'g'risida mutlaqo fikr yuritmaydi, eng asosiy g'oyalarga e'tibor bermaydi, fikrlar, raqamlarni esa saqlab qolmaydi, birinchi va ikkinchi holatlarni ajrata olmaydi, to'g'ri terminlar va yangi so'zlarni mustaqil tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

Ko'r-ko'rona ko'chirib yozish salbiy oqibatlarini keltirib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun doim konspekt yozishga sidqidillikdan kirishish, asarning mazmunini to'liq o'zlashtirish mantiqan to'g'ri va izchil ko'nikmalarni muntazam takomillashtirib borishi kerak.

Talabalar konspekt yozishda asarning muhim muhim asosiy joylarini to'g'ridan to'g'ri ko'chirib olishlari ham mumkin. Bunday hollar ko'chirilgan tekst

har ikki tomonidan qo'shtirnoqqa olinadi va sitata deb ataladi. Qavs ishida esa ko'chirib olingan joyning manbai ko'rsatiladi.

Biz hozirgacha birjirta kitob yoki manbani konspektlash haqida gapirdik. Ayrim hollarda bir mavzuga doir bir necha kitob yokimaqolani birgalikda konspektlashtirishga to'g'ri keladi. Bu holda birorta masala turli manbalarda qanday bayon qilinganini o'qib chiqib ichidan eng yaxshi va to'g'ri bayon qilinganlarini tanlab olish, ularni o'z so'zi bilan ifoda qilishga o'rganishi. Buning uchun kitobni qanday tutish kerakligi, kitobni qachon, qayerda o'qish mumkinligi yoki mumkin emasligi va shunga o'xshash qoidalarni ham bilishimiz kerak. Qisqa qilib aytganda kitob bilan shunday munosabatda bo'lish kerakki, kitoblar uzoq yashasin.

Bundan tashqari javonda turib qolgan kitoblarni vaqti-vaqti bilan shamollatib turish kerak, xullas kitoblarni changdan, zahdan nurdan saqlash kerak. Bular qog'ozga yomon ta'sir ko'rsatib, kitoblarni ishdan chiqaradi. Ta'limning mazmuni, yunalishi, metodlari, tashkiliy shakllari nimalarga kura belgilanadi? Ta'lim prinsiplari tizimi bilan ta'limning samaradorligini oshirish urtasida alokadorlik bormi? Ta'lim ijtimoiy xodisa. Shunday ekan, uni tashkil etish, boshkarishda kanday talablarga rioya kilinadi? Adabiyotlarda ta'lim prinsiplari pedagog faoliyatiga kuyiladigan talablar sifatida izoxlanadi. Ta'lim prinsiplari talabalar faoliyatiga xam daxldormi? Bu savollarga javob izlash, shubxasiz, ta'lim prinsiplari moxiyatini, tizimini va ularning ukuv-tarbiya jarayonidagi makomini izoxlash imkoniyatini beradi.

3. Tezislar va referat tayyorlash

Kitob ustida ishlasning muhim shakllaridan biri konspekt olishning qisqaroq shakli uni tezislar deb ataydi; tezislar ham yozish ham kitob ustida ishlashning maxsulidir. Tezislar o'rganilayotgan materialni asosiy holatlarini qisqacha va lo'nda ifodalashga imkon beradi.

Tezislar o'qilgan kitoblarni chuqur tahlil qilish eng muhim g'oyalarni boshqalardan ajratib olish g'oyasini hosil qilisiida muhim ahamiyatga egadir. Tezislar yozishdan asosiy maqsad talabalar biiimlarini aniq, ravshan va asosiy maqsadni qisqa bayon qilishga mavzuning mazmunini qisqa vaqt ichida yoritish, mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga o'rgatishdir. Tezislar odatda asarning mazmunini to'liq o'zlashtirilgan va qisqa vaqt ichida bayon qilishga lozim bo'lganda tuziladi. Bunga talabalarning konferensiyalarga tayyorgarlik qilinayotganda laqdim qilinadigan tezislar misol bo'lishi mumkin. Shuni aytish kerakki, bunday tezislar bosilib chiqib, konferensiya ishtirokchilariga tarqatiladi va konferensiyada muhokama qilishga asos bo'ladi. Tezislarni tuzish konspekt yczishga qaraganda ancha murakkab, tezislar asosida kengaytirilgan konspektlar tuzish mumkin. Shu bilan birga eng yaxshi yozilgan konspektlardan fezis tuzish unchalik qiyin emas. Tezislar oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Oddiy tezis isbotsiz, dalilsiz boiib, murakkab tezis asosiy maqsadni kengroq yoritiladi. Shuni aytish kerakki, bosmada bosilgan tczis kelajakda ilmiy asar ro'yxatiga kiritilish mumkin.

Shunday qilib tezislar tuzish konspekt yozishga nisbtan ancha murakkab. Bu

konspektdagi masalalarni qisqacha, lo'nda qilib bayon qilishni talab qiyadi.

Shunday qilib, murakkab va kengroq tezislar yaxshi o'zlashtirilgan mufassal materiallar asosida tuziladi. Ayrim majlislarda so'zga chiqishni ko'zda tutgan notiqalar prezidumda o'tirib o'z chiqishlarini tezis holda yozib oladilar.

Talabalar 4 yillik o'quv jarayoni davomida, so'zga chiqqanlarida konspektga o'xshatib tezisga qarab gapira beradigan notiqlik san'atidan ham ayrim tajribalarga ega bo'lishlari kerak. Chunki kelajakda iqtisodchi-pedagog sifatida ishlaganlarida, ularga talabalar bilan muloqotda bo'lishi kerak bo'ladi. Ayrim yig'ilishlarda so'zga chiqishga to'g'ri keladi. Dastlabki tajribani seminarlarda va konferensiyalarda tajriba qilib ko'rish kerak.

Ma'lumki, o'qish jarayonida turli fanlar bo'yicha xilma-xil mavzularda referat yozishga to'g'ri keladi. Referat lotincha «refcre» so'zidan olingan bo'lib, doklad qilish, axborot berish demakdir. Referat dastlab yozma ravishda bayon qilinadi. Referat deganda muayan masalaning mohiyatini, mazmunini ifodalash tushuniladi. Referatlar yozdirishning asosiy maqsadi talabalarning mustaqil olgan bilimlarini baholash, baxslashish, muayan mavzuda ularning ta'lim olishini tashkil qilish mutaxassislikka doir nazariy va amaliy bilimlarni boyitishdan iborat.

Referat yozish tezis tuzish yoki konspekt olishga qaraganda ko'p vaqt va mehnat talab qiladi. Chunki talaba mavzu mohiyatini chuqur bilish, yaxshi o'ylab ko'rishi, puxta tahlil qilishga, o'qigan tekstiga tanqidiy ko'z bilan qarashi, uni to'liq o'rganishi, umumlashtirish ilmiy jihatdan mustaqil xulosalar chiqarishi, o'z fikrini isbot dalillar orqali asoslab berishi, mavzuni aktualligi va amaliy ahamiyatini to'liq yoritishi kerak.

Referat seminar mashg'ulotlarida nazariy amaliy konferensiyalarda muhokama qilinadi, baxslanadi.

Talabalarning mustaqil ishlash va ta'lim olishning shakllaridan biri o'zlari o'qigan kitoblari, matbuot nashrlariga doir kartatekalar tuzishdir. Bunda mutaxassislik va ixtisoslikka doir maxsus adabiyotlar, ulardan olingan asosiy faktlar, raqamlar sitatalarni nazariy, xulosalarni ko'chirib yozish va mavzuga doirlarini tartibga solish, tematikalarga bo'lib chiqish, ulardan foydalanishni engillashtirishdir.

Hozirda kartotekalar internet shaklida tuzilmoqda. Har bir mavzu bo'yicha yangi ma'lumotlar bilan boyitib bormoqda.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Kitob ustida ishlash metodikasini aytib bering.
2. Kutubxonada kitoblar nima asosida tanlanadi?
3. Katalog nima?
4. Referat qanday tayyorlanadi?

5. Tezis nima?
6. Tezis qanday tayyorlanadi?
7. Konspekt nima?
8. Konspekt qanday tayyorlanadi?

9-mavzu: Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonida ilmiy tadqiqot ishlari

O'quv maqsadi: Talabalarga o'z mutaxassislik fanlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarining turlari va yozish tartibi haqida ma'lumot berish

Tayanch so'z va iboralar: kurs ishi, bitiruv malakaviy ish, konspekt, mutaxassislik fanlar, ilmiy tadqiqot ishlari.

Asosiy savollar:

1. Ilmiy tadqiqot ishlari turlari
2. Kurs ishlari va ularni yozish tartibi.
3. Bitiruv malakaviy ishlar va ularni yozish tartibi.

1. Ilmiy tadqiqot ishlari turlari.

Oliy maktablarda mutaxassislar tayyorlashning muhim yo'nalishlaridan biri talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishdir.

Iqtisodiyotning barcha sohalarida, shu hisobda, iqtisodiy pedagogika sohasida ham ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish bilan iqtisodiy fanlarni yanada rivojlantirish bilan birga kadrlar tayyorlashni sifat jihatidan oshirishga yordam beradi. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi iqtisod sohasidagi tadqiqotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari haqida maxsus qaror qabul qildi. Bu qarorda ko'rsatilishicha, respublikamizda bank moliya tizimini rivojlantirish va erkinlashtirishni prognozlashtirish instituti tashkil qilinadi. Bu institutning vazifasi birinchidan, respublika bank moliya tizimini rivojlantirishning hozirgi holatini chuqur izchil tahlil qilish bu asosda jahon tajribasini o'rganish asosida bank qonunchiligini takomillashtirishdan iborat. Ikkinchidan, bank moliya tizimini makroiqtisodiy va byudjet tizimi siyosati bilan uzviy muvofiqashtirish, iqtisodiyotni isloh qilishning maqsadli vazifalarini va ustivor yo'nalishlarini va ijlimoiy rivojlanishining qabul qilingan kompleks dasturlariga muvofiq bo'lgan strategiyasi ishlab chiqishda qatnashish va boshqa masalalarni tadqiq qilish bilan shug'ullanadi. Keigusida bu institutda 30 ortiq ilmiy xodim faoliyat yuritadi. Shuni aytish kerakki, ilmiy tadqiqot bo'yicha qobiliyatli bitiruvchilar mazkur institutga ilmiy xodim sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu ilmiy tadqiqot institutiga birinchi navbatda magistraturani tamomlagan bitiruvchilar qabul qilinadilar. Hozirda 4 yillik o'quv davrida yaxshi faoliyat ko'rsatgan talabalar

magistraturaga qoldirilmoqda. Magistraturaga qabul qilinganlar bilan suhbatlashganimizda ularaning o'quv davrida talabalarning ilmiy-tadqiqot

to'garaklarida qatnashganliklarini, o'zlari tayyorlagan ilmiy dokladlar bilan talabaiarning ilmiy konfensiyalarida ishtirok etganliklarini bayon qiladilar.

Xozirda institutimizdagi kafedralar huzuridagi ilmiy tadqiqot to'garaklari tashkil qilingan, inga malakali o'qituvchilar rahbarlik qilmoqdalar. To'garaklar bir oyda ikki marotaba majlis o'tkazib, bu kun tartibida ilmiy tadqiqot ishlarining tashkiliy asoslari o'rganiladi. Talabalarga tadqiqot uchun mavzular taqsimlanib beriladi, ularga rahbar tayinlanadi. Har yili aprel oyida talabalarni ilmiy konferensiyalari o'tkaziladi, konferensiya ishtirokchilari bir necha seksiyalarda ish olib boradilar. Har bir talabaga 2 mavzuda ilmiy doklad bilan qatnashishga ruhsat beriladi. Eng yaxshi doklad mualliflari belgilangan tartibda taqdirianadilar.

Shuni aytish kerakki, to'garaklar va konferensiyalar talabatarning flkriash doirasini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xozirda institutimizda ishlayotgan va dars berayotgan o'qituvchilarning ko'pchiligi kafedralardagi ilmiy to'garaklarni sobiq talabalari bolganligini unutmastlik kerak. To'garakning aktiv a'zolari kelgusida fan nomzodi va doktori bo'iib yetishganliklarini, ularning maqolalari matbuotda e'lon qilinganligini ko'rsatib o'tish kerak. Xozirda respublika gazetalari eng yaxshi talabalar tomonidan yozilgan mazmunli maqolalarni bosib chiqarmoqdalar va bu maqolalar kelgusida magistraturaga yo'llanma olishga xizmat qiladi.

2. Kurs ishlari va ularni yozish tartibi

Kurs ishlari oliy talim jarayonining tarkibiy qismidir. Birinchi kursda iqtisodiy geografiya, ikkinchi kursda iqtisodiy nazariya, uchinchi va to'rtinchi kurslarda mutaxassislikka doir fanlar bo'yicha kurs ishlari bajariladi,. Kurs ishlari mavzu jihatdan xilma-xil bo'lsa ham, lekin uni uslubining bir-biriga o'xshash tomonlari bor.

Kurs ishi bolajak mutaxassisning shakllanishida muhim va hal qiluvchi bosqichlaridan iqtisodiy nazariy va amaliy muslaqii bilimni egallashning muhim tadbirlaridan biridir.

Kurs ishini bajarish jarayonida ilmiy va tarbiyaviy ishlar kompleks asosida amalga oshirilib, bularni orasida quyidagilar birinchi darajali ahamiyatga egadir. Buning yo'nalishlari quyidagicha:

1. Fanning dolzarb mavzusi va muammolari chuqur o'rganiladi. Kurs ishi ustida ishlash jarayonida talaba tor ramka sifatida o'rganayotgan mavzuni chuqur o'rganishi, uning yo'nalishlarini tahlil qilish haqida tushunchalarga ega bo'ladi;
2. Muslaqil ishlash usullari bilan tanishadi, iqlisodiy nazariy va amaliyotni dolzarb masalalarini yozma bayon qilish usullarini o'rganadi. Bundan tashqari bibliografiya tuzish, statistik to'plamlardan foydalanish, mavzular bo'yicha konspekt tuzish, aqliy mehnatni tavsiyalaridan foydalanishga xarakat qiladi;
3. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarni amaliyotda qanday tatbiq qilinishini

o'rganadi.

Kurs ishi talabaning mustaqil fikrlash doirasini kengaytiradi.

Shunday qilib, kurs ishi talabaning mustaqil ishini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega. Har bir kurs ishini bajarandan keyin talabaga imtihon topshirish uchun ruxsat beriladi.

Shunday qilib, kurs ishini bajarish jarayonida talaba quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

1. Kurs ishi uchun mavzu tanlash;
2. Kafedra tomonidan tavsiya qilingan adabiyotlarni to'plash, ularni o'rganish, konspektlash, kerakli joylarini yozib olish;
3. Kurs ishi rejasini tuzish;
4. Nazariy masalalar va amaliy materiallarni umumlashtirish, tahlil qilish, qaytadan baholab chiqish;
5. Kurs ishi tekstini yozib chiqish uni rasmiylashtirish va o'qituvchiga taqriz uchun taqdim etish;
6. Taqrizning talablari asosida ayrim tuzatishlar kiritish, taqrizchi talabi asosida qo'shimcha savollarga yozma javob berish;
7. Kurs ishini himoyasiga tayyorlanish.

Kurs ishi mavzu tanlashda, uning ahamiyati, nazariy va amaliy materiallarni mavjudligi va yetarli bo'lishi, yangi masalalarni o'rganilishi, tanlangan mavzu haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishi, tanlangan masalalarga qiziqishi ham muhim

ahamiyatga egadir.

Bundan tashqari mavzu juda keng masalalarga bag'ishlanmasligi, qisqa masalalarni aniqlash bilan chegaralanmasligi kerak.

Shunday qilib, mavzu tanlashda mumkin qadar murakkab mavzuni tanlashga harakat qilish kerakki, bu masalani o'rganish talabaning bilmagan narsalarini bilib olishga kursning navbatdagi bo'limlarini o'rganishga yaqindan yordam beradi. Institut sharoitida 3-4 fandan yoziladigan kurs ishining bir-biri bilan bog'langan bo'lishi talabaning bir-biri bilan bog'langan masalalarini izchil o'rganishga yordam berdi.

Kurs ishini rejasini tuzish tavsiya qilingan adabiyotlarni o'rganib chiqilgandan keyin boshlanadi.

Shuni ko'zda tutish kerakki, rejadagi masalalar ko'payib ketmasin rejada eng muhim masalalar o'z ifodasini topishi, rejada ko'zda tutilgan masalalar hozirgi zamon talablari bilan aloqador bo'lishi kerak. Ayrim talabalar reja tuzganda oldin ko'zda tutilgan masalalarni takrorlash hollari sodir bo'ladi. Uchinchi masala birinchi masalani, to'rtinchi masala ikkinchi masalani takrorlamasligi kerak. Reja tuzganda ko'zda tutilgan masalalarni aniq ifoda qilishga harakat qilish kerak.

Rejaning kirish qismida asosiy masalalar ko'rsatilib, bir masalani tushuntirgandan keyin ikkinchi masalaga o'tishda izchillikni e'tibor berish kerak. Har bir masala mamlakat oldida tutgan vazifalar bilan aloqador bo'lishi

kerak.

Kurs ishida raqamlar va misollarni ishlatishda ularning orasidan eng muhimini tanlab olishga ahamiyat berish kerak. Kurs ishida keltirilgan raqamlar va misollar tasodifiy bo'lmazligi, ular bir-biri bilan bog'langan bo'lishi kerak. Mumkin qadar

yangi raqamlar va faktlardan foydalanish kerak. Bundan tashqari kurs ishida mahalliy maumollardan foydalanishga e'tibor berish kerak.

Kurs ishi hajmi 30 betdan oshmasligi kerak. Har sahifada 2-3 sm atrofida joy qoldirish kerak. Bu joy taqrizchining fikrini yozma bayon qilishini ko'zda tutadi.

Kurs ishini xar bir betida 2-3 abzasdan boshlanishi ko'zda tutilib ilovada adabiyotlar ro'yxati beriladi. Bunda (dastlab Oliy Majlis qarorlari, Prezident asarlari, kurs ishiga doir monografiyalar ko'rsatiladi.

Kurs ishining dastlabki nusxasi yozib bo'lingandan keyin, ilmiy rahbari ko'rib chiqib, kamchiliklarni ko'rsatadi. Bu kamchiliklar tugatilgandan keyin kurs ishi himoyaga taqdim etiladi. Kafedra laboranti kim va qachon himoya qilishi haqida talabalarni xabardor qiladi. Har bir kurs ishiga komissiya tomonidan baho qo'yiladi. Yomon baho olganlar takroran kurs ishi yozadi va yoqlaydilar.

3. Bitiruv malakaviy ishlari va ularni yozish tartibi

Bitiruv malakaviy ishlari oliy o'quv yurtlarida olingan ta'limning so'ngi bosqichi hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ish yozish pedagogik amaliyoti davrida amalga oshirilsa ham, lekin unga tayyorgarlik institutda oxirgi darslar davom etayotgan oylardan boshlanadi.

Oxirgi kursda barcha imtihon va sinovlarni tugallanish arafasida pedagogik amaliyotiga tayyorgarlik boshlanadi. Dastlab qaysi talaba qaysi kasb-hunar kolleji yoki litseylarga pedagogik amaliyotini o'tashi aniqlanadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik talabalar Samarqanda amaliyot o'tashga xarakat qiladilar. Boshqa shahardan kelgan talabalarni o'z turar joylarida amaliyot olib borilishiga ham ruhsat beriladi. Amaliyot «Iqtisodiyot nazariyasi» va "Iqtisod asoslari" fani bo'yicha o'tkaziladi.

Amaliyotda, talaba kasb-hunar kolleji yoki litseylarga yuborilib, amaliyot rahbari belgilanadi, birinchi haftada talabalar, tajribali o'qituvchilarni darsiga kirib darsni tahlil qiladi. Ikkinchi haftada talabalar o'zlari dars o'tib beradiva kamida 2 ta ochiq dars o'tib berish kerak bo'ladi. Ochiq darsda albatta amaliyot rahbari va 2-3 ta tajribali o'qituvchi qatnashib darsni tahlil qiladi. Darsda 3-4 yangi pedagogik texnologiyalarning usullaridan foydalanish kerak. Har bir dars bo'yicha tuzilgan amaliyot reja amaliyot rahbari tomonidan nazorat qilinadi. Bu haqida amaliyot rahbari talabaning kundaligiga yozib imzo qo'yadi. Pedagogik amaliyoti tugallangandan keyin barcha o'rganilgan masalalar yig'ma hisobotda qisqacha bayon qilinadi. Hisobot institut bo'yicha amaliyot rahbari tomonida qarab tekshirilib, taqriz yoziladi. Taqrizga ijobiy yoki salbiy baho beriladi, amaliyot rahbarining xulosalari e'tiborga olinadi. Hisobot komissiya a'zolari

ishtirokida himoya qilinadi. Amaliyot davrida xar xaftada bir kun bitiruv malakaviy ish uchun vaqt ajratiladi. Bitiruv malakaviy ish ishlab chiqarish amaliyot davrida davom ettiriladi. Dekanat bu tadbirni xar bir talaba bilan kelishib hal qiladi. Ishlab chiqarish amaliyoti davrida rahbar tomonidan bitiruv malakaviy ish ustida qanday ish olib borilayotgani kuzatiladi. Kamchiliklar ko'rsatiladi. Pedagogik amaliyoti tugagandan keyin kafedraga bitiruv malakaviy ishning dastlabki varianti taqdim qilinadi. Shu bilan birga kafedra tomonidan bitiruv malakaviy ishining himoyasi uyushtiriladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Ilmiy to'garak nima va u qanday tashkil qilinadi?
2. Ilmiy to'garakka a'zo bo'lish va qatnashish tartibi.
3. Ilmiy to'garakning maqsadi va vazifalari.
4. Kurs ishi nima?

Foydalanilgan adabiyotlar :

Asosiy adabiyotlar: 1,3,5,9,22,27,29,30. Qo'shimcha adabiyotlar: 37,39,41,42,43.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. – T.: «O'zbekiston», 1995.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: «O'zbekiston», 1999.
3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.: «O'zbekiston», 1999.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: «Sharq», 1999
5. Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» T: 2009y
6. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". - T: "Sharq", 1997.
7. SH.S. Suleymanov. "Samarkandskiy Kooperativniy Institut imeni V.V Kuybisheva. (1931-1981) T.: "Uzbekistan" 1981 god.
8. A. Nurullayev. "Mutaxassislikka kirish" fanidan ma'ruza matnlari to'plami. T.: "Iqtisod-Moliya" 2005 yil.
9. M.M. Maxmudova. "Mutaxassislikka kirish" fanidan ma'ruza matni. S.: SamChI-2007 yil.
10. N. Xo'jayev, J. Hasanboyev. "Iqtisodiy pedagogika" Toshkent. 2002 y.
11. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000.
12. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2003.
13. Xo'jayev N. va boshqalar "Pedagogika asoslari" 2003 yil.
14. Xo'jayev N. va boshqalar "Ta'lim nazariyasi" 2003 yil.
15. Xo'jayev N.X., Xodiyev B.Y, Baubekova G.D., Tilabova N.T. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Fan», 2002.
16. Pedagogika. - T.: "O'qituvchi", 1996 y.
17. Pedagogika tarixi. - T.: "O'qituvchi", 1996 y.
18. Inson odobi. - T.: 1991 y.
19. Komilov N. Komil inson xaqida to'rt risola. - T.: "Ma'naviyat", 1997 y.
20. Odobnoma. - T.: "Fan", 1992 y.
21. Ochilov M. "O'qituvchi odobi". - T.: 1993 y.
22. Pedagogik izlanish. - T.: 1990 y.

M U N D A R I J A :

BIRINCHI MA`RUZA. "Mutaxassislikka kirish" fanining maqsadi va vazifalari	3
IKKINCHI MA`RUZA. Oliy o`quv yurtida o`quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishi.	7
UCHINCHI MA`RUZA. : OLYI TA`LIM MUASSASALARIDA TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNING REYTING TIZIMI TO`G`RISIDA.....	15
TURTINCHI MA`RUZA. Samarqand davlat iqtisodiyot va servis instituti xaqida.....	18
BESHINCHI MA`RUZA. :Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti talabalarining ma`naviy- ma'rifiy qiyofasi.....	26
OLTINCHI MA`RUZA: Mutaxassislik fanlarini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning tutgan o'rni va ahamiyati.....	32
YETTINCHI MA`RUZA. Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonining ilmiy asoslari.....	40
SAKKIZINCHI MA`RUZA. Mutaxassislik fanlarni o`qish jarayonida kitob ustida ishlash.....	45
TO`QQIZINCHI MA`RUZA: Mutaxassislik fanlarni o`qitish jarayonida ilmiy tadqiqot ishlari.....	52